

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Tibbiy ko'rikdan o'tish ham bizga qimmatga tushmoqda. 58 ming so'm to'ladim. Xullas, shpris va boshqalar bilan hisoblaganda 70 mingga yaqinlashdi. Rentgen qog'oziga 5 ming so'rashdi.

6-bet

Ma'naviyat va ma'rifat — taraqqiyot qanoti

Farzandga pul emas, mehr bering!

Xo'sh, quchoqlab mehr berish bizga nima beradi?

11-bet

Ziyodaning yana bir g'alabasi

Mustaqillik ayyomiga munosib tuhfa bo'ldi

49 nafar sportchi-mizning bari sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi.




15-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 11-sentabr, chorshanba № 70 (9239)

Xalq ziyolilari gazetasi



Alifboni isloh qilish shart(mi?)

8-9-betlar

O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS DAVRIGA POYDEVOR QO'YILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-sentabr kuni Toshkent shahrida ish boshlagan Prezident maktabini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz uchun eng katta muammo — bu bugungi zamon talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohalarida innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislar ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidlab keladi.

Chunki murakkab o'tish davrida maktablardagi ta'lim sifati pasayib ketdi, kollejlarda davomat nomiga yurgizildi. Ijod maktablarining yo'qligi, madaniyat o'choqlari, to'garaklar faoliyatiga e'tibor qaratilmagani bir qator jiddiy muammolarni

keltirib chiqardi. Yoshlarimiz bilimsiz bo'lib ulg'aydi, ayrimlari yomon yo'llarga kirib ketdi, ba'zilar esa chet ellarda sarsan-sargardon yuribdi.

Shu bois Shavkat Mirziyoyev bu masalaga o'z tashvishi va dardidek qaradi, yurtimizning ertangi kuni zamonaviy kadrlarga bog'liq ekanini alohida ta'kidlab, buning uchun ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida o'rta qo'ydi.

Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlay-

digan bo'lsak, ular jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlaganini ko'ramiz. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi.

Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

(Davomi 2-betda.)

OTM talabalarining 62 foizi "3" bahoga o'qiydi



Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi anjumanlar zalida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rahbar-xodimlari ishtirokida matbuot anjumani bo'lib o'tadi. Anjumanda 2019-2020-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatining o'rnatilgani borasida ma'lumotlar taqdim etildi hamda jurnalist, blogger hamda talabalarning savollariga javob berildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari Sarvar Buzrukonovning ta'kidlashicha, 2019-2020-o'quv yilidan boshlab to'lov-kontrakt qiymati miqdori ikki xil ko'rinishda — "stipendiyali" va "stipendiyasiz" etib belgilanishi talabalarga to'lovlarni amalga oshirishda qulaylik yaratadi, aholining keng qatlami uchun oliy ta'limning hammabopligini ta'minlaydi. Stipendiyasiz qiymat miqdorlari, har oylik talabaga to'lanishi belgilanayotgan 400 000 so'm, bir yilda jami 4 800 000 so'mni chegirib tashlash hisobiga shakllantiriladi. Misol uchun, bakalavriatning pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'lov-kontrakt asosida tahsil oladigan talaba bu o'quv yilidan boshlab, stipendiya bilan 10 792 960 so'm, stipendiyasiz 5 992 960 so'm miqdorida to'laydi. Bundan tashqari, endilikda kontrakt summamini oyma-oy bo'lib to'lash imkoniyati beriladi hamda oliy ta'lim muassasalari rektorlari to'lov muddatini uzaytirish vakolatiga ega bo'ladi.

6-bet

O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS DAVRIGA POYDEVOR QO'YILDI

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Shu maqsadda qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimi mazmunan va sifat jihatidan yangilanib bormoqda.

O'zbekistonda ulug' allomalarimiz — Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, xalqimizning ardoqli adiblari nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil noyabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun, avvalo, yangi avlod kadrlarini tayyorlash zarurligini, shu maqsadda yurtimizning har bir hududida bittadan yangi toifadagi maktablar — Prezident maktablari tashkil etilishini ta'kidlagan edi. Joriy yil 20-fevral kuni davlatimiz rahbarining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, qisqa muddatda Toshkent shahrida dastlabki Prezident maktabi qurib bitkazildi, Nukus, Namangan va Xiva shaharlaridagi shunday maktablar qurilishi jadal davom etmoqda.

2020-yilda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida, 2021-yilda Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida Prezident maktablari tashkil etish rejalashtirilgan.

Mazkur o'quv maskanlari yangi avlod kadrlarini yetishtirishda muhim poydevor bo'lishi shubhasiz. Chunki, Prezident maktablari iqtidorli bolalarni aniqlash, ularga ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda saboq berish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim bo'ladi. Bu iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'n'an yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Prezident maktablari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi shaklida tashkil etiladi. Bu maktablarga o'quvchilar 4-sinf bitiruvchilari orasidan mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko'ra qabul qilinadi. Maktabning yillik qabul kvotasi 24 o'quvchidan iborat bo'lib, ikkita sinfga bir xil — 12 nafardan o'quvchi taqsimlanadi. Ta'lim jarayoni xorijdagi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejasiga dasturlari bo'yicha ingliz tilida olib boriladi. Tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar bilan birga o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy o'zlikni anglatish uchun o'zbek tili va adabiyoti, tarix va boshqa fanlarga ham alohida ahamiyat qaratiladi.

Prezident maktablarida “STEAM — ta'lim” (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) dasturi joriy etiladi.

9–11-sinflarda o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va intellektual salohiyatini inobatga olgan holda, ayrim fanlar individual tarzda o'qitiladi. Shuningdek, sinfdan

tashqari amaliy mashg'ulotlar ham tashkil qilinadi.

Prezident maktablari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan birga, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkonini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi.

Toshkent shahrida ochilgan Prezident maktabi yangi toifadagi bilim maskanlari uchun andoza bo'ladi. Mazkur o'quv maskani tuzilishi jihatidan an'anaviy maktablardan farqli ravishda ixcham va bilim olish uchun qulay. Maktab 168 o'rinni bo'lib, 12 ta sinfxona, 2 tadan informatika va ingliz tili xonalari, fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari, yotoqxona, oshxona, xorijlik o'qituvchilar uchun 15 o'rinni mehmonxona mavjud. Barcha xonalar zamonaviy o'quv uskunlari va innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan. Sport zali, suzish havzasi, futbol maydoni qurilishiga ham innovatsion yondashilgan. Ayniqsa, o'zida zamonaviy qulayliklarni mujassam etgan yotoqxona o'quvchilarga oila muhitidagidek yashash va dars qilish imkonini beradi.

O'quvchilar haftaning 5 kuni maktabda o'qib yashaydi. Dam olish kunlari ota-onalar farzandlarini uyga olib ketishi mumkin.

Joriy yilda maktabning 5–10-sinflariga hujjat topshirgan 7 mingga yaqin o'quvchidan 144 nafari qabul qilindi. Kanadaning “Teach Away” va Buyuk Britaniyaning “TIC Recruitment” rekrutng kompaniyalari bilan hamkorlikda maktabga 30 nafar chet ellik mutaxassis tanlab olindi. Shuningdek, 72 nafar malakali va tajribali mahalliy o'qituvchi jalb qilindi. Avgust oyida barcha o'qituvchilar uchun Cambridge STEAM ta'lim dasturini tatbiq qilishga qaratilgan maxsus trening tashkil etildi. STEAM dasturiga oid darslik va o'quv qo'llanmalari olib kelindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Bu hayotingizdagi birinchi sinov bo'ldi. Mehnat, bilim, adolat nima ekanini ko'rdingiz. Barchangizni shunday nufuzli maktabga munosib topilganingiz bilan chin yurakdan tabriklayman. Sizlar endi O'zbekistonning “oltin fondi” bo'ldingiz. Xalqning, mamlakatning buyukligini tarannum etadigan narsalar ko'p. Lekin eng afzali bilim bilan namoyon etish. Yoshlarimiz orasidan Xorazmiylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar chiqishga barcha asoslarimiz bor. Bugun — tarixiy kun. Ilgari yurtimizda bunday sharoit bo'lmagan. Endi chet eldan nufuzli mehmonlar kelsa, katta-katta zavodlarni emas, Prezident maktablarini ko'rsatamiz. Sizlar bilimingiz, chiroyli xulq-odobingiz, vatanparvarligingiz bilan hamma yoshlarga namuna bo'lishingiz kerak. Kelgusida O'zbekiston taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan kuchga aylanishingiz lozim, dedi davlatimiz rahbari.

Maktab o'quvchilari zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga milliy o'zligimizni chuqur anglashi, tariximiz va ona tilimizni mukammal bilishi shartligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari xorijlik va mahalliy o'qituvchilar bilan ham muloqotda bo'ldi.

Yuragimdagi gapimni bilishingizni xohlayman: sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning chaqna turgan ko'zlarini, ilgama chanqoqligi va bilimga intilishini, g'urur-iftixorini ko'rib, yo'limiz to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo'layotganingiz uchun sizlarga minnatdorklik bildiraman, dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'quvchilarning ota-onalari va ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda O'zbekistonda uchinchi renessans — uyg'onish davri boshlanayotgani ta'kidlandi.

Bu ilm maskanlari umumta'lim maktablaridan mutlaqo farq qiladi. Bu yerda o'quvchilar tinimsiz o'z ustida izlanadi, ularning fanlarni o'zlashtirishi doimiy nazorat qilib boriladi. Ushbu maktablarda ta'lim mazmuni va sifatini yangicha asosda yo'lga qo'yish uchun kuni kecha Prezident qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Uchrashuvda Prezident maktablari dunyodagi eng zamonaviy uslublar asosida tashkil etilgan bilim maskanlari ekanini, bu maktablar bino yoki sharoiti emas, intellekt, ma'naviy-ma'rifiy muhiti, dars berish metodikasi bilan boshqa maktablarga namuna bo'lishi kerakligi qayd etildi.

— Kembrij universiteti O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan Prezident maktablari uchun o'quv dasturi ishlab chiqish va o'quvchilarni saralab olish bo'yicha bitim tuzgan, — deydi mazkur universitetning “Cambridge Assessment International Education” muassasasi Shimoliy va Markaziy Osiyo bo'yicha ta'lim dasturi rahbari Stiv King. — Ushbu bitimga muvofiq, tashkilotimiz joriy yilda ilk imtihonlarni o'tkazdi va natijada eng bilimli, eng qobiliyatli bolalar saralab olindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrif chog'ida bu bolalarga O'zbekistonning kelajagi, ertangi umidi, deb ishonch bilan qaragani bizni quvontirdi. Tashkilotimiz ushbu loyihada ishtirok etayotganidan mamnunmiz. Nafaqat Toshkentda, balki yurtimizning barcha hududlarida tashkil etilayotgan Prezident maktablariga iqtidorli bolalarni tanlab olishga o'z hissamizni qo'shish niyatidamiz.

— O'g'lim Pahlavon maktabning 5-sinfiga qabul qilindi, — deydi Farruh Tursunov. — Bu maktabning ochilishi iqtidorli bolalarga yangi imkoniyat yaratadi. Chunki bu yerdagi sharoitni hech qaysi ota-onada yaratib berolmaydi. Maktabda har bir o'quvchi uchun bitta netbuk ajratilgan, barcha o'quvchilar ingliz tilida bemalol so'zlasha oladi. Prezidentimiz “bolalarda havas uyg'onishi uchun akademiklar bu yerga kelib o'z hayotini gapirib bersin”, dedi. Bu bolalarning ilgama intilishini kuchaytirib kelajakda olamga mashhur olimlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Maktabda yangi ta'lim texnologiyalari joriy etilgani bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi.

— O'qituvchilarning tanlov asosida qabul qilinishi, imtihonlarning shaffofligi, mavjud sharoit, ta'lim jarayoniga yangi o'quv reja va dasturlari kiritilgani Prezident maktablarining har tomonlama zamonaviy bo'lishiga imkon yaratadi, — deydi Prezident maktablari loyihasi rahbari Amrullo Abdullayev. — Bu maktablarda

o'quvchilarning dunyodagi nufuzli universitetlarga o'qishga qodir bo'lib bitirishi asosiy mezon qilib olingan. Bunga erishish uchun xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilyapmiz. Prezident maktablarini tashkil etishdagi tajriba kelgusida umumta'lim maktablarida o'quv dasturlarini yangilash va ta'lim sifatini oshirish, yurtimizning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida Prezident maktabining faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi. Unda, jumladan, shunday so'zlar bor:

“Bugungi kunda yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga, butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz.

Ana shunday salohiyatli va barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikamizning har bir hududida mutlaqo zamonaviy shakldagi ta'lim muassasalari — Prezident maktablarini tashkil etdik.

Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O'zbekistonimizning ertangi taqdirini o'z qo'lga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarida g'olib bo'lishga qodir shaxslarni — yangi Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniylar, Ulug'beklarni tarbiyalab yetishtiradi.

Poytaxtimiz Toshkent shahrida faoliyat boshlagan Prezident maktabi xalqimizning ulug'vor va olijanob orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishda barchaga namuna bo'lishiga tilakdoshaman.”

Shavkat Mirziyoyev maktabning ilk o'quvchi va o'qituvchilari bilan suratga tushdi, yangi maskanga zamonaviy avtobus sovg'a qildi.

— O'zbekistonga xalqaro trener sifatida keldim. Bundan juda xursandman. Mamlakatimiz madaniyati, xalqimizning xushmuomala va mehmondo'stligi menda katta taassurot uyg'otdi, — deydi Namangan viloyatidagi Prezident maktabi o'qituvchisi, fransiyalik Hafida Bensadoun. — Toshkentdagi Prezident maktabiga kelib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdim. Faoliyatimni tez orada boshlash, mamlakatimiz o'quvchilariga dunyo eshiklari ochilishi uchun bor tajriba va kuch-g'ayratimni ishga solish niyatidaman. O'zbekistonda yoshlar kelajagi, ta'lim olishi uchun kiritilgan investitsiya kelgusida o'zining yuksak samarasini berishi, mamlakat rivojiga ulkan hissa qo'shishi shubhasiz.

Mamlakatimizning kelgusi jadal taraqqiyoti yosh iste'dod egalarini aniqlash, iqtidorli bolalarni saralash va o'qitish tizimini takomillashtirish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishni taqozo etmoqda. Prezident maktablari bu borada muhim qadam bo'lib, har tomonlama yetuk, jamiyatimizga munosib kadrlarni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Matnazar ELMURODOV,
O'ZA muxbiri

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI PREZIDENT, IJOD VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

O'tgan davr mobaynida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalar talablari asosida darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, shu jumladan, elektron shaklda nashr etish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini professional va yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan, talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'lmoqda.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, umumta'lim muassasalarini faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Agentlikning idoraviy bo'ysunuviga o'tkazilsin:

Prezident maktablari; tasdiqlangan shtat jadvalini va ularni moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda Xalq ta'limi vazirligining hududiy organlari huzuridagi Abdulla Oripov, Hamid Olimjon va Zulfiya, Muhammad Yusuf, Ibroym Yusuf, Erkin Vohidov, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Halima Xudoyberdiyeva va Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi (keyingi o'rinlarda — ijod maktablari);

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirish o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati va Abu Ali Ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati (keyingi o'rinlarda — ixtisoslashtirilgan maktablar).

3. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash,

o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish;

davlat ta'lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona shaklda muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quv-tarbiyaviy jarayoniga ilg'or ta'lim shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, bag'rikenglik tuyg'ularini, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish, ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada oshirish;

xalqaro tashkilotlar va ekspertlarni jalb qilgan holda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar pedagogik kadrlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ushbu muassasalardagi bino va inshootlardan foydalanish bo'yicha ishlarni monitoring qilish va muvofiqlashtirish.

4. Belgilab qo'yilsinki: Agentlik respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Agentlikning o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabдор shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqabllanmagan boshqa manbalari Agentlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun o'rnatiladigan davlat ta'lim standartlari Agentlik tomonidan tasdiqlanadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi qoshidagi "O'qituvchi" ilmiy-uslubiy nashriyot markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr etish bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtiradi;

Markaz Agentlik buyurtmasi asosida davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarning, shu jumladan, elektron ko'rinishda tayyorlanishi va nashr etilishini ta'minlaydi va ular keyinchalik Agentlik

tomonidan tasdiqlanadi.

5. Agentlik ish samaradorligining quyidagi eng muhim ko'rsatkichlari belgilansin:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quvchilarida, shu jumladan, vatanparvarlik, Vatanga beqiyos muhabbat va sodiqlik tuyg'ularini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilarining davlat va chet tillarini mukammal bilishi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga malakali va tajribali, chuqur bilimlarga ega, davlat va chet tillarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalari va o'qitishning innovatsion uslublarini biladigan pedagoglarni jalb qilish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirishlari uchun, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim tizimining faoliyat yuritishi orqali kerakli sharoitlarni yaratish;

Prezident maktablari bitiruvchilarining kamida 20 foizi xalqaro tan olingan tashkilotlar reytingida oliy ta'lim muassasalari orasida dastlabki 1 000 ta pog'onani egallagan yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilariga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, respublika ahamiyatiga ega boshqa tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalar, yirik kompaniya va birlashmalarga ishgа joylashishda ko'maklashish;

o'qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy qilgan holda talab yuqori bo'lgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar sonini ko'paytirish;

barcha Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san'at va boshqa ijodiy yo'nalishlardagi asarlarga ega bo'lgan zamonaviy kutubxonalarning ishlashi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv-uslubiy jarayonni avtomatlashtirishni ta'minlash va ularni yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulash;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv jarayoniga ta'limning ilg'or shakllarini, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish maqsadida xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy sport zal, inventar, uskuna va boshqa jihozlar bilan ta'minlash.

Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu banda nazarda tutilgan maqsadli ko'rsatkichlarni o'z vaqtida bajarish va ularga erishish bo'yicha choralar ko'rsin.

6. Agentlik huzurida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etilsin va uni shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari va texnik ko'mak ko'rsatish mablag'lari;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Bunda mazkur Farmonning 2-bandida nazarda tutilgan Agentlik bo'ysunuviga o'tkaziladigan tashkilotlarni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag'lar ajratiladi.

Belgilansinki, Jamg'arma mablag'larini quyidagilarga yo'naltiriladi:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shu jumladan, zarur hollarda o'quv ustaxonalari va laboratoriyalari, sport zallari, maydonchalar va boshqa infratuzilma obyektlarini tashkil etgan holda o'quv korpuslarini kengaytirish ishlarini moliyalashtirish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqib, eng yangi o'quv-laboratoriya, ilmiy, ishlab chiqarish va sport jihozlari, musiqa asboblari, kompyuter texnikasi, mebel va asbob-uskunalar bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash) ishlarini moliyalashtirish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etish;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv-uslubiy rahbarlikni ta'minlash, ta'lim jarayonini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilotlar xizmatiga haq to'lash;

Agentlikka yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni va chet elda istiqomat qilayotgan vatan-doshlarimizni fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlash uchun jalb qilish;

Agentlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar.

7. Belgilansinki, Agentlik Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning tasarruf etuvchisi hisoblanadi.

8. Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020/2021-o'quv yilidan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi tashkilotni o'rnatish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin:

(Davomi 4-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI PREZIDENT, IJOD VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 3-betda.)

ijod maktablarida har bir sinfdagi o'quvchilar soni 20 nafarni tashkil qiladi, 7-sinfga qabul qilish esa ijodiy tanlovlar, test va boshqa sinovlar asosida amalga oshiriladi;

ijod maktablarida o'quvchilar sonidan qat'iy nazar, 1 shtat birligida kutubxonachi lavozimi kiritiladi;

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari muntazam ravishda ijod maktablarida o'quvchilarning ijodiy iste'dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib boradi;

ijod maktablarida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari mehnatiga haq to'lash umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari mehnatiga soatbay haq

to'lashga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga bir oy muddatda ijod maktablarini milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykal-tiroshlik, amaliy san'at va boshqa ijodiy yo'nalishlardagi 100 ta eng yaxshi asarlar (bestsellerlar) bilan ta'minlash tavsiya etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-yanvargacha ijod maktablarining kutubxonalari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs bazasiga ulanishini ta'minlasin.

10. Toshkent viloyati hokimligi va "Chorvoq" erkin turistik zonasini direktoriya DUK yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari uchun yozgi sport-sog'lomlashtirish oromgohi, shuningdek, Agentlik va Markaz xodimlari uchun dam olish zonasini qurilishi uchun qulay tabiiy sharoitlarga ega yer uchastkasini ajratish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda Agentlik faoliyatini tashkil qi-

lish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritilsin.

Xalq ta'limi vazirligi ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abdurahimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

*Toshkent shahri,
2019-yil 9-sentabr*

SH.MIRZIYOYEV

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI PREZIDENT, IJOD VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabr-dagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5815-son Farmoniga muvofiq:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 57 nafardan iborat **markaziy apparatining tuzilmasi** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligiga (keyingi o'rinlarda — Agentlik) O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi;

Agentlik direktori uning

taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan 3 nafar o'rinbosarga, shu jumladan, bir nafar birinchi o'rinbosarga ega;

Agentlik direktori mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport ta'minoti shartlariga ko'ra vazirga, uning birinchi o'rinbosari — vazirning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari — tegishli ravishda vazir o'rinbosarlariga tenglashtiriladi;

Agentlikning shtatlari soni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hududiy organlaridagi 57 ta ishlab chiqarish xodimlari shtat birligini optimallashtirish hisobidan jamlanadi.

3. Agentlik direktoriga: zarur hollarda, Agentlik tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy shtatlari soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

Agentlik huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Agentlik xodimlarining qo'shimcha shtat birliklarini kiritish;

istisno tariqasida, idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarni tashkil etish va ularni tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

Agentlik huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan davlat or-

ganlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, xorijiy ekspertlarni shartnoma asosida ishga jalb qilish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarining, shuningdek, ular yotoqxonalarining shtat jadvalini tasdiqlash huquqi berilsin.

Agentlik direktori bir oy muddatda Agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash uchun uni zarur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'ldirilishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti parametrlari doirasida 2019-yilda Agentlik ta'minoti uchun mablag'larni ajratsin, 2020 yildan boshlab esa har yili zarur byudjet mablag'larini nazarda tutsin;

4 ta xizmat avtotransport vositasini saqlash uchun limit belgilasin, shuningdek, Agentlikka ularni xarid qilish uchun zarur mablag'lar ajratilishini ta'minlasin;

Agentlikka asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra aniq xarajatlardan kelib chiqqan holda moddiy-texnik bazani shakllantirish uchun zarur uskunalar xarid

qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ma'muriy binolarni ta'mirlashga 2019-yilda 3 milliard so'm, 2020-yilda esa 7 milliard so'mga mablag'lar ajratilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Agentlikni zarur aloqa vositalari, shu jumladan, hukumat aloqasi bilan ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

Agentlikning joylashtirilishini ta'minlasin;

Agentlik to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, eng yangi o'quv-laboratoriya, ilmiy, ishlab chiqarish va sport uskunalar, anjomlar, inventar va boshqa zarur vositalar bilan jihozlash dasturini tasdiqlasin;

2020—2025-yillarda ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini ko'rib chiqish uchun kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

*Toshkent shahri,
2019-yil 9-sentabr*

SH.MIRZIYOYEV

OTM talabalarining 62 foizi “3” bahoga o'qiydi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Yangi o'quv yilida to'lov-kontrakt qiyamati miqdorining 18 foizga oshirilishi oliy ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqi miqdori (o'tgan o'quv yilida 3 marotaba), kommunal xizmatlar tariflari va boshqa xarajatlar oshgani holda, oliy ta'lim muassasalari xarajatlarning daromadlariga nisbatan 74 foizga o'sgani bilan izohlandi.

— Bir talaba uchun oliy ta'lim muassasining yillik xarajati stipendiya bilan taxminan 15 million so'm, stipendiyasiz esa 11 million so'mni tashkil etadi, — deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari Sarvar Buzrukkonov. — Hozirgi to'lov-kontrakt miqdori esa o'qitish xarajatining o'rta 68 foizini qoplaydi, xolos. Undan tashqari,

yildan yilga oliy ta'limga qamrov ko'rsatkichi ortib borishi oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va o'quv binolari quvvatini oshirish bo'yicha qo'shimcha ehtiyojga olib keladi, bu esa o'z navbatida qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

Anjuman davomida stipendiya uchun belgilangan qiymat bo'yicha ham savollar o'rta tashlandi. Mutasaddilarning ta'kidlashicha, yurtimiz oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'rta 62 foizi “3” bahoga o'qiydi. Tabiiyki, amaldagi tartibga ko'ra, qoniqarli baho uchun 380 ming so'm atrofida stipendiya to'lanadi. Oliy ta'lim muassasalari jamoatchilik kengashi bergan xulosalarga asoslangan holda endilikda davlat granti va to'lov-

kontraktida o'qiydigan barcha talabalarga bir xil — 400 ming so'm stipendiya beriladi. Lekin yaxshi o'qigan, ilmiy va jamoatchilik ishlarida faol qatnashgan talabalarga OTM rektorlari tomonidan stipendiyaning 50 foizigacha (200 ming so'mgacha) miqdorda qo'shimcha rag'batlantirish tartibi joriy qilinadi. Bunday qo'shimcha stipendiyani kimga berishni rektorlar hal qiladi.

Hozir bitiruvchi kurs talabalariga eski tizim saqlab qolinadi, ya'ni ular avvalgidek “3”, “4”, “5”lik stipendiya oladi.

Yana bir yangilik shu bo'ldiki, davlat grantida o'qiyotgan talabalar agar semestr yakunida 30 foizdan ortiq fanlardan 3 baho olsa, kelgusi semestrda stipendiya olish huquqidan mahrum bo'ladi. Prezident stipendiyasi va nomdor stipendiyalarni olgan talabalar uchun stipendiya miqdori saqlab qolinadi.

Abror UMARQULOV,
“Ma'rifat” muxbiri

Ma'naviyatchilar uchun “Ma'naviyat soati”

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining anjumanlar zalida markaz xodimlari uchun “Ma'naviyat soati” tashkil etildi. “Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlarining ma'naviy portreti” mavzusida tashkil etilgan davra suhbatida bugungi kunda xodimlar oldida turgan vazifalar, markaz faoliyatini yanada rivojlantirishda xodimning mas'uliyati, ma'naviyat va ma'rifat masalalari xususida fikr yuritildi.

Markaz rahbari A.Qodirov ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarida tarbiya masalasini yuqori o'rinda chiqarish dolzarb masala ekanini ta'kidladi. Har bir ma'naviyat targ'ibotchisi yangi uslubda ish olib borishi, tarbiya yoshlar ma'naviyatida ustqurma vazifasini o'tashi lozimligi qayd etildi.

Rahbarning birinchi o'rinbosari M.Quronov bugungi zamonaviy tahdidlar, ularga qarshi tura olish, ma'naviyat sohasi xodimining jamiyatdagi o'rni va yosh kadrlarni tayyorlashda “Us-toz-shogird” an'anasini yo'lga qo'yish masalalariga to'xtalib o'tdi.

Mustaqilligimizning 28 yilligi munosabati bilan markaz xodimlari va ularning farzandlari uchun “Barhayot ajdodlarimiz” nomli to'plam sovg'a qilindi. Ushbu to'plamdan zaminimizda yashagan va dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan 12 nafar mutafakkir (Hakim Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Marg'inoniy, Maxdumi A'zam) haqidagi kitoblarni o'rin olgan.

Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markazi
axborot xizmati

Muallimlarga!

Keyingi yillarda sohamizga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan barcha o'qituvchi va murabbiylar qatori mening ham ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Jamiyatda bugun chin ma'noda o'qituvchilarimiz qadr topmoqda, turli jabhalarda siz, aziz muallimlarga imkoniyat va imtiyozlar berilmoqda.

Bugun siz turli ommaviy safarbarlik ishlaridan ozod etildingiz. Endi sizdan faqat ta'limda sifat, tarbiyada ma'naviyatni oshirish talab etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilarning boshini baland, qaddini tik tutishlari uchun davlat rahbari boshchiligidagi butun davlat va jamiyat, ko'p sonli ta'lim fidoyilari harakat qilmoqda.

Albatta, jamiyatda o'qituvchi nufuzini oshirish borasida olib borilayotgan bunday keng qamrovli ishlar soha xodimlariga katta kuch-g'ayrat bag'ishlash bilan birga, mas'uliyat ham yuklaydi. Bildirilgan ishonch va bu o'zgarishlarga munosib javob qaytarish oldingizdagi muhim vazifadir.

Bajarayotgan ishingiz, kundalik va oylik rejalaringizga baho berish fikridan yiroqmiz, chunki respublika va xalqaro fan olimpiadalarda, turli sport musobaqalarida nufuzli o'rin-

larni egallayotgan yoshlarimizning muvaffaqiyatlarida hissangiz borligi, albatta, barchamizni birday quvontiradi. Lekin yoshlar o'rtasida yengil-yelpi hayotni targ'ib qiluvchi seriallarni ko'rishga havas kuchli, qolaversa, ular ijtimoiy tarmoqlarning asiriga aylanib, internet olamiga sho'ng'ib bormoqda. Axborot kommunikatsiyalari rivojlangan asrda yashayapmiz, internet tarmog'idan foydalanishning afzalliklari ko'p. Bugungi kun yoshlari kechagi o'g'il-qizlardan farq qiladi. Ularga taqiy va tazyiq orqali ta'sir ko'rsatish qiyin. Nazarimda, aynan mana shu nuqtada, shu jarayonda sizning ovozingiz, so'zingizga yanada ko'proq ehtiyoj boray...

Yangi o'quv yilini yangi sahifa, yangi ovoz bilan boshlang, aziz ustozim! Sizning ovozingiz ma'naviyat, insoniylik, mehr-oqibat va sadoqat ovozi bo'lsin. Mehr-u vafo, sharm-u hayo, nazokatni yonib kuylagan, har bir so'zida kelajak avlodga ibrat va hikmat jo bo'lgan Navoiy bobomizning

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami
kabi misralarini, jahon ilm-u fani va madaniyati tamadduni rivojiga katta hissa qo'shgan Beruniy, Ibn Sinolarning xizmatlarini, a'moli insoniylik, diyonatga yo'g'rilgan Imom Buxoriy, Termiziyilar to'plagan hadislarini aytishdan tilingiz tolmasin.

Kelajagimiz vorislari ovozimizni eshitib, tafakkur qilsin, yo'limizdan faxr bilan yursin, har bir so'zimizdan, qadamimizdan ibrat olsin. Ularni ma'rifat va ma'naviyat insonning qalbini pok, iymon-e'tiqodini baquvvat eta oladigan, barhayot kuch ekanligiga ishonitiraylik. Yoshlarimiz kindik qoni to'kilgan yurtning har bir qarich yerini, bir siqim tuprog'ini muqaddas deb bilsin, yurtga fidoyi, zukko avlod bo'lib voyaga yetsin, unda yashayotgan xalqning quvonch-u tashvishlarini, orzu-armonlarini qalbidan o'tkaza olsin. Yon-atrofda ro'y bera-yotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lsin, hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan turli axborot oqimlariga, ma'naviyatimizga yot bo'lgan turli g'oyalarga nisbatan immunitet hosil qilsin, mustaqil va sog'lom fikrli, dunyoqarashi keng avlod bo'lib voyaga yetsin...

Qadrli ustozim, unutmang! Siz endi tetapoya bo'lib hayotga katta ishonch va umid bilan kirib kelayotgan, olamga beg'ubor nigoh ila boqayotgan o'g'il-qizlarni asrab-avaylaysiz, bor mehringiz, yurak qo'ringiz-u ko'z nuringizni aya-masdan ularga bilim berasiz, katta hayot yo'lga kuzatasiz... Bu mashaqqatli ishda sizga vijdon uyg'oqligi hamroh bo'lsin, zero, asrlar osha ustoz-murabbiylarning yo'li hamisha nurlu va oydin, ezgulik va ziyo yo'li bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Nasiba MAMARAIMOVA,
Xalq ta'limi vazirligi
bosh mutaxassisi

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



✓ Tibbiy ko'riqdan o'tish ham bizga qimmatga tushmoqda. 58 ming so'm to'ladim. Xullas, shpris va boshqalar bilan hisoblaganda 70 mingga yaqinlashdi. Rentgen qog'oziga 5 ming so'm so'rashdi.

Barno BEKIYEVA

✓ Ta'lim sohasidagi kamchilik va muammolarni yashir-sak, u tobora ildiz otib boraveradi. Oxir-oqibat ta'limda rivojlanish, yuksalish uzil-kesil to'xtaydi, ya'ni ta'lim tanazzulga yuz tutadi.

Shahnoza AVAZOVA

✓ Bizning maktabda bir o'qituvchi tashkiliy ish — yig'di-yig'dilarni zo'r amalga oshirgani uchun unga direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimi berildi.

PEDAGOG

✓ Sidqidildan ishlab, o'zini ko'rsatgan xodim, sabr qilsa, hammasiga erishadi. Maktab bilan cheklanmasdan tumanda, viloyatda o'zingizni ko'rsatib ko'zga ko'rinsangiz, rahbar siz bilan hisoblashishga majbur bo'ladi.

Xusrav MIRZOYEV

✓ Har bir rahbar xodimlarining oilaviy sharoitini o'ylashi kerak. Agar xodimning oilasi tinch bo'lsa, ishida halovat bo'ladi.

Sevaraxon RAHMONQULOVA

✓ Agar rahbarlarimiz tanish-bilish qilishmasdan korruptsiyaga chek qo'ysa edi, maktablarga harf tanimaydigan bolalar kelmasdi. Unday o'quvchilar uchun maxsus maktablar bor. Psixologlarimizdan shunday o'quvchilarga to'g'ri yo'llanma berishlarini ko'rgan bo'lardim. Guruhda bu darajada kurmak bo'lishi ham maktab rahbariyati-yu ustozlarning e'tiborsizligidan.

Gulnora MUHAMMEDOVA

✓ O'qituvchilarga ajratilgan avtokredit uchun ro'yxat olinayotimi? Men XTBga murojaat qilsam, biz ro'yxatni berib bo'ldik, dedi. Lekin hech qaysi maktab ro'yxat tuzilayotganini bilmaydi. Boshqa viloyatlarda vaziyat qanday ekan?

Dilrabo RAHIMOVA

«O'ttizinchi» o'gaymi? yoki kichik maktabning katta muammosi

Xalq ta'limi vazirligi va Namangan viloyat hokimligi diqqatiga!

Yangi o'quv yili oldidan barcha o'quvchilar maktab tomon oshiqib, o'qituvchilar yangicha tayyorgarlik bilan metodik materiallar to'playotgan bir paytda ayrimlar maktabga borishni istamasligi mumkinmi? Norin tumani Qo'rg'oncha mahallasi farzandlari ta'lim-tarbiya olayotgan 30-umumta'lim maktabida o'qiyotgan bolalarni ko'rib, o'gay onaning farzandiga o'xshatgimiz keldi. Boisi necha yillardan buyon bu maskanning pedagogik jamoasi tuman va viloyat miqyosidagi mutasaddilar e'tiborini kutib ishlashyapti. 305 nafar o'quvchi bilim oladigan bir qavatli o'quv binosi juda tor, bor-yo'g'i 9 ta sinf xonasi mavjud. Imkoniyat yo'qligidan darslar ikki smenada tashkil etilishi ham bor gap.

Shundayam bitta sinf maktab osh-xonasida o'qirdi. Darvoqe, yuqoridan har bir ta'lim muassasasida oshxona bo'lishi shartligi to'g'risida ogohlantirish berilgach, oshxona ham bo'shatildi. Xona tegmaydigan o'quvchilar bu yil qayerda saboq oladi, buni hech kim bilmaydi. Axir sinfxona u yozda tursin, maktab o'qituvchilarining o'zlari xonaga yolg'imgandandan keyin boshqasi to'g'risida so'z yuritish o'rinsiz, aslida.

Ha, maktabda hatto o'qituvchilar uchun ham xona yo'qligidan bahor-yozda hovli sahnidagi daraxtlar soyasidan goh dam olish, goh malaka oshirish joyi sifatida foydalanayotgan pedagoglar qishli-qirovli kunlarda o'quv binosidagi biron fan xonasi bo'shashini kutib o'tirishga majbur. Mana shu ahvolda fan, ijodiy yoki kasb-hunar to'garaklari faoliyatini yuritish tugul tashkil etish to'g'risida og'iz ocholmaymiz. Kimyo, biologiya, fizika fan laboratoriyalari

da amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari o'tkazishni faqat tushda ko'rish mumkin. Aslida, bunday laboratoriyalarning o'zi yo'q!

— Fan laboratoriyasi yo'qligidan faqat nazariy bilim beryapman, xolos, — dedi kimyo fani o'qituvchisi Sevara Qurbonova. — Amaliy mashg'ulotlar o'tilmaydi. Buning uchun maxsus o'quvchilar xavfsizligi ta'minlangan xona, reaktivlar zarur. 7 yildan buyon reaktiv olmaganmiz. O'ylaylik desak, saqlash, laboratoriya ishi va tajribalar o'tkazish uchun shart-sharoit yo'q.

Fizika fani o'qitilishi haqida ham bundan ortiq gap ayto'lmaymiz. Devoriga uch-to'rt fizik olimlar surati va bir-ikki jadvaldan iborat ko'rgazmali vosita ilingan xona fizika fani uchun ajratilgan ekan. Faollar zali, psixolog, ma'naviyat xonalari va tibbiy xizmat xonasi ham ko'pchilik uchun faqat orzuga aylanib qolgan. Gapning indallosini aytganda,

maktab rahbarlari — direktor, ikki nafar o'rinbosari va maktab psixologi bir xonada ishlashga majbur.

— Men huquq fanidan dars bera-man, — dedi Jasur Qobulov. — Fanga qiziquvchi o'quvchilarni jalb etib “Yosh huquqshunos” to'garagi tashkil etgan-man. Haftada bir, imkon topilsa, ikki marta to'garak mashg'uloti o'taman. Sizga qiziq tuyulsa kerag-u, ammo kulg-mang. Birinchi smenada darslar tugashi-ni, biron xona bo'shashini o'quvchilar bilan kutib turamiz. Odatda haftaning oxirida boshlang'ich sinflar xonalarida dars o'tilmaydi. O'shandan foydalanib qolishga intilamiz.

O'quvchilar uchun tashkil etiladigan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ularning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, bilimlarini boyitish, iste'dod va iqtidorlarini tarbiyalash va rivojlantirishga xizmat qilishini yaxshi bilasiz. Ayniqsa, Yurtboshimiz tashabbusi asosida ilgari surilgan besh tashabbus bu boradagi ishlarni yanada faollashtirish, yangi mazmun va ma'no baxsh etgan holda rivojlantirishga turtki bo'ldi. Biroq 30-maktabda mazkur vazifalarni bajarish uchun na sharoit, na imkoniyat borligidan o'qituvchilar ko'zlagan yangi rejalar faqat qog'ozda qolib ketyapti.

— Tadbirlar uyushtiradigan bo'lsak, maktab sport zalidan foydalana-miz. U ham qishda sovuq, yozda issiq. Maktabga ichimlik suvi tarmog'i tor-

tilmagan, — deydi direktor o'rinbosari Feruza Jalilova. — Kutubxona uchun joy yo'qligidan qorovulxonaning bir chetini kutubxona qilganmiz. Ilgari shu xonada o'qituvchilar darsga tayyorgarlik ko'rishardi, darsi yo'qlari dam olishardi. To'g'ri, 2005-yilda maktab joriy ta'mirlangan. Tom qismi yangilani-b, 9x18 hajmda sport zali qurilgan. O'sha yillari o'quvchi soni oz edi. Yil o'tgani sari o'quvchilar safi kengaydi, biroq maktab uchun barcha shart-sharoitlarga ega yangi bino qurish to'g'risida hech kim tashvish chekmayapti.

Maktab mutasaddilari tor maktabning katta tashvishlarini gapirish bilan-gina cheklanmay, bu borada bir necha marta tuman xalq ta'limi bo'limi, tuman hokimligiga murojaat qilishgan.

— Agar berilgan va'dalarga ishonadigan bo'lsak, 2022-yili maktabimiz dasturga ko'ra ta'mirlanarkan, — dedi direktor Hamida Karimova. — Yangi ko'shimcha o'quv xonasi qurish, faollar zali, o'quv ustaxonasiga ehtiyoj katta. Hozircha kutaymiz.

Shu o'rinda bir mulohaza. Tumandagi ayrim ta'lim muassasalari o'tgan yillar mobaynida qabul qilingan turli dastur va qarorlarga binoan ikki-uch marotaba mukammal ta'mirlandi, qayta qurildi. Agar ularni 30-maktabga sharoit va imkoniyat bobida taqqoslaydigan bo'lsak, ustun jihatlari talaygina. O'ylaymizki, 30-umumta'lim maktabi ta'lim muassasalarini ta'mirlash rejasiga kiritish vakolatiga ega mutasaddilar uchun o'gay emas. Muxtasar aytganda, kichik maktabning katta muammolari Norin tumani hokimligi va boshqa masalaga daxldor tashkilot rahbarlarining adolatlari qarorlari bilan barham topadi.

G'anisher AKBAROV,
“Ma'rifat” muxbiri

Adolatsiz g'oliblar

2019-yil 26-iyun kuni “Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi” ko'rik-tanlovining Buxoro viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlov davomida ba'zi bir ko'ngilni xira qiluvchi voqealar, nohaqliklar bo'ldi.

Biz Qorovulbozor tumanidagi 6-maktab jamoasi ikki oy davomida mazkur tanlovga jiddiy tayyorgarlik ko'rdik. Tumanda birinchi o'rinni qo'lga kiritgach, viloyat bosqichiga ham puxta tayyorlana boshladik. Ertalab soat 9:00 dan 11:00 gacha, kechki payt 18:00 dan 20:00 ga qadar har kunlik tayyorgarlik mashg'ulotlari olib borildi, tanlov nizomida qayd etilgan barcha kitoblar ishtirokchilar tomonidan mutolaa va muhokama etildi.

Nihoyat biz kutgan kun — 21-iyun ham keldi, ammo tanlov o'tkaziladigan joyga yetganda noaniq sabablarga ko'ra tanlov 25-iyunga ko'chirilganligini eshitdik va jamoamiz bilan kayfiyatni tushirmagan holda ortga qaytdik. 24-iyun kuni esa bizni hayratlantiradigan yana bir xabar keldi: “Tanlovning hududiy bosqichi 26-iyunda o'tkaziladi”. Bu holat, albatta, barchamizni taajjublantirdi. Chunki “Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi” ko'rik-tanlovi Nizomining 3-bob “b” bandida “ikkinchi (hududiy) bosqich — hududiy axborot-resurs markazi tomonidan tuzilgan ishchi guruh tomonidan 25-iyunga qadar tuman(shahar)da g'olib bo'lgan maktablar o'rtasida o'tkaziladi”, deb yozib qo'yilgan edi.

Ushbu “anglashilmovchilik”larga ham ko'ngan holda viloyat axborot-resurs markazi istagiga bino-

an 26-iyun kuni ertalab 8:30 da Buxoro shahridagi 35-maktabga yetib keldik. Soat 9:00 lar atrofida qur'a asosida jamoalarning chiqish ketma-ketligi aniqlandi, bizga 13-raqam nasib etdi. Tanlovning boshlanish vaqti belgilangan paytda jami 8 jamoa bor edi. Birinchi shart asosida 5-jamoa chiqishi ko'rilayotgan bir vaqtda Romitan tuman jamoasi kechikib keldi va to'qqiz jamoa orasidan yettinchi bo'lib chiqish huquqini egaladi. Hamma hayron qoldi: tashkiliy qo'mita kechikib kelgan va umumiy qur'a tashlash marosimida ishtirok etmagan jamoaning hech qanday e'tirozlarsiz tanlovda ishtirokiga ruxsat berdi.

Tanlovning barcha bosqichlarida katta ballni qo'lga kiritib kelayotgan Romitan tumani jamoasi bellashuvning birinchi va uchinchi shartlarida belgilangan vaqt reglamentidan o'tib ketdi. Ammo ularning umumiy balidan bir ball ham olib tashlanmadi. Vaholanki, nizomning 4-bobida “Har bir shart bo'yicha belgilangan vaqtdan o'tib ketgan taqdirda umumiy jamlangan ballar hisobidan 5 ballgacha olib tashlanadi”, deb aniq yozib qo'yilgan. Shuningdek, mazkur hujjatning 1-bob 2-bandida tanlov O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy ken-gashi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda o'tkazilishi ta'kidlangan bo'lsa-da, hakamlar hay'ati hamda ishchi guruh tarkibiga ushbu tashkilotning hududiy bo'limlaridan biror kishi kiritil-magan edi.

2-bobda mazkur tanlovni o'tkazishdan maqsad yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish bo'lganligi belgilangani sababli biz O'zbekiston xalq

shoiri Usmon Azimning “Baxshiyona” kitobi asosi-da sahna ko'rinishi tayyorlagan edik. Romitan tumani jamoasi esa ushbu shartda kitobxonlikka hech qanday aloqasi bo'lmagan terrorizmga qarshi kurash targ'ib etilgan sahna ko'rinishini namoyish etdi. Ammo ular bu shartda ham bizdan yuqori ball sohibiga aylandi. Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 26-apreldagi 141-sonli buyrug'ining 12-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomda “mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi PQ-3271-sonli qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida “Yilning eng yaxshi kitobxon maktabi” ko'rik-tanlovinini o'tkazish tartibini belgilaydi”, degan satlarning mavjudligi hakamlar xayolidan faromush bo'lgan bo'lsa, ne ajab?

Xullas, ushbu tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqi Romitan tumani jamoasiga nasib etdi. Biz esa ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdik. Aslida, muhimi g'alaba emas, harakat. Ammo bu kabi adolatsizliklarning hamon jamiyatimiz orasida mavjudligi ko'nglimizni xira qilibgina qolmay, xalqimiz ma'naviyati rivoji ildizlariga bolta urayotgani ham bor gap.

H.XOLMURODOV,
Qorovulbozor tumanidagi
6-maktab direktorining
o'quv-tarbiya ishlari
bo'yicha o'rinbosari

Yan-gi, den-giz, ko'n-gil (*bo'g'inga ajratilishi*); bulan, qorum; O'zbekiston, g'oz; hoxlamoq, xarom, buxton kabi so'zlar yozilishidagi imloviy xatoliklarga duch kelganimda negadir *"Shunchalik savodsizlashib qoldimi? Yoki boshqa sababi bormi?"* degan o'yg'a cho'masiz. Pedagogik tajribam davomida bu kabi xatolarga ko'p bor duch keldim. Turli imtihonlarda shu kabi xatolarni belgilayotganimda negadir to'g'ri qildimmikan, deb ikkilanib qolaman. Bu "imloviy savodsizlik"ni xato deyshimiz qay darajada to'g'ri? Asl muammo qayerda: *xalqimiz shunchalik savodsizmi? Yo ona tilini o'qitish to'g'ri tashkillashtirilmayaptimi? Yoki bo'lmasa, alifbomiz tuzilganda xalqning milliy tovush xususiyatlari va grafik tamoyillar yetarli darajada hisobga olinmaganmikan?* Har bir til davlat tili maqomiga ega bo'lgach, ushbu tilda amalga oshiriladigan ilk islohot milliy alifbo yaratish masalasiga oid bo'lishi shubhasiz. Bizda-chi? Ona tilimiz davlat tili maqomini qo'lga kiritganiga qariyb 30 yil to'lyapti. Ammo hali-hamon xalq yaxlit mukammal alifbodan foydalanmaydi. Xo'sh, bu hol qachongacha davom etadi?! Yana qancha avlod arosatda yashaydi?!

Alifbo o'zi nima? U nimaga asoslanib tuziladi?

Jamiyat yakkidilligini ta'minlovchi, millat ruhini o'zida mujassam etuvchi vosita til bo'lsa, ana shu tilning barqarorligini o'zida aks ettiruvchi manba — bu alifbodir. Uning istilohiy ma'nosi esa ilmiy adabiyotlarda quyidagicha izohlanadi: **Alifbo** (*arabcha, alif* va *be* harflaridan kelib chiqqan) — yozuv shakllari(harf va belgilar)ning ma'lum tartib asosida joylashtirilgan majmuyi. Harf-chi? U o'zi nima? **Harf** — fonema(nutq tovushi)ning yozuvdagi ifodasi. Odatda tilda harf va fonemalar soni teng bo'ladi. Fonemalar bir nutq tovushi bilan ham, aynan bir-biriga yaqin birdan ortiq nutq tovushlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, o'zbekcha so'zlarda o fonemasi bitta nutq tovushi bilan ifodalalanadi, i fonemasi esa nutqda qisqa (*qirg, bilan*) yoki cho'ziq (*mashina, hamisha*) nutq tovushlari bilan ifodalanishi ham mumkin. Alifbo og'zaki nutqda yaqqol ajralib turadigan nutq tovushlari (fonemalar) asosida tuzilgan bo'lishi, bir-biriga juda yaqin talaffuz qilinadigan tovushlar o'zaro bitta harf bilan ifodalanishi maqsadga muvofiq. Ammo dunyo xalqlarining alifbo yaratish tajribasini kuzatsak, har doim ham bu me'yorga amal qilinmaganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, s fonemasi ingliz tili alifbosida s va c harflari bilan, arab alifbosida 3 xil harf bilan ifodalanadi. Bu esa til o'rganuvchilar uchun ortiqcha muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, alifboda bir-biridan deyarli farq qilmaydigan tovushlarning bir harf bilan ifodalanishi har tomonlama maqbul hisoblanadi.

Nega 26 yildan beri lotin alifbosiga to'liq o'tilmadi?

Ko'pchiligidiz *"Nega yurtimizda 26 yildan beri lotin alifbosiga to'liq o'tilmadi?"* degan savolni o'zimizga berib ko'rganmiz, albatta. Shuningdek, bu boradagi har xil vajjlarni ham eshitganmiz. Kimdir buni avlodlar almashinuviga bog'laydi. Bu fikr ham qaysidir ma'noda asosli. Ammo asl sabab bu emasligi ham barchamizga ayon. Keling, mustaqil O'zbekistonda alifbo islohotlariga bir nazar tashlaymiz.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, unga

ko'ra alifbo 31 harf va 1 tutuq belgisidan iborat etib belgilandi. 1995-yil 6-mayda ushbu qonunga ham o'zgartirish kiritilib, alifbodagi Cc (ts) va Jj (*jurnal*) belgilari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarib tashlandi. O'o', G'g', Shsh, Chch va ng harflarining esa ifodalanish shakli o'zgartirildi. Ammo ko'p vaqt o'tmay, ushbu islohotlar tahrir va yozuv jarayonida ko'plab muammolarni keltirib chiqara boshladi.

Birinchidan, O'o', G'g' harflari yozilishida ikki belgidan foydalanish qator muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, **O'o'** harfini yozish uchun avval **O** harfini yozib, keyin *Alt* tugmachasini bosib turgan holda **0145** kodini terish kerak. **G'g'** harfini yozish ham shunday murakkab jarayonni talab qiladi.

Ikkinchidan, ng belgisi alifboga mustaqil harf birikmasi sifatida kiritilishi, aslida, xato edi. Chunki bunday harfiy birikmalarni tilimizda yana uchraydi. Masalan, *ng' (dong'i, shang'illamog)*. Ng ham Ng' kabi aslida mustaqil fonema emas, u ikki tovushning nutqiy jarayonda o'zaro qorishib, uyg'unlashib ketishidir. Bu faqat o'zbek tiliga xos bo'lgan hodisa ham emas: *brifing* — ingliz tilida. Shunday qilib, yaxlit **ng** harfi hamda mustaqil **n** va **g** harflarini farqlay olish yana bir muammoni keltirib chiqardi. Zero, bu ikki fonologik birikmani farqlash so'zlarni bo'g'inga ajratishda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular ikki xil bo'g'inga ajratiladi: *de-ngiz (ng) // men-ga (n va g)*.

Uchinchidan, Shsh, Chch harf birik-

Alifboni qulaylashtirish uchun davlat va jahon miqyosida dasturiy-texnikaviy ta'minot yaratilmadi. Bu esa jamiyat orasida **"Alifboni isloh qilish kerak?"** degan dolzarb masalani yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

malarini yozish kishidan ortiqcha vaqt sarflashni talab qiladi. Chunki bir tovushni ifodalash uchun ikki belgini bosish kerak. Vaholanki, o'zbek tili leksikasida *Shsh, Chch* harflari ishtirok etgan so'zlar juda ko'p. Bu hol sun'iy tarzda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Bir so'z bilan aytganda, o'shanda hozirgi davr talablariga javob berolmaydigan, ya'ni muntazam yozuv amaliyoti uchun qulay bo'lmagan alifbo ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan edi. Bu esa lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosining amaliyotda faol ommalashishiga to'sqinlik qildi. Shu bilan birga, alifboni qulaylashtirish uchun

Millat mulki

Alifboni isloh qilish shart(mi?)

davlat va jahon miqyosida dasturiy-texnikaviy ta'minot yaratilmadi. Bu esa jamiyat orasida **"Alifboni isloh qilish kerak?"** degan dolzarb masalaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Isloh etilib, taklif sifatida keltirilgan yangi lotin alifbosining afzalliklari va kamchiliklari

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida ishchi guruh tuzilib, amaldagi lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosi muammolari o'rganib chiqildi hamda yozuv islohoti yuzasidan so'nggi takliflar e'lon qilindi. Bu taklifga binoan o'zbek alifbosini quyidagicha o'zgartirish maqsadga muvofiq deb topilgan (amalda bo'lgan lotin alifbosidagi variantini qavs ichida berdik):

Aa(Aa), Bb(Bb), Cc(ts), Cc(Chch), Dd(Dd), Ee(Ee), Ff(Ff), Gg(Gg), Gg(G'g'), Hh(Hh), Ii(Ii), Jj(Jj), Kk(Kk), Ll(Ll), Mm(Mm), Nn(Nn), Oo(Oo), Oo(O'o'), Pp(Pp), Qq(Qq), Rr(Rr), Ss(Ss), Ss(Shsh), Tt(Tt), Uu(Uu), Vv(Vv), Xx(Xx), Yy(Yy), Zz(Zz), ' (tutuq belgisi)

Taklif etilgan loyiha bilan amaldagi alifbo o'rtasida anchagina farqni, yangi variantdagi qulaylikni bilish qiyin emas. Xususan, isloh etilgan alifboda quyidagi afzalliklarni ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, Ch va Sh harf birikmalari ta'sirida yuzaga kelayotgan sun'iy qiyinchilik yo'qotilgan, natijada alifbo ancha qulaylashgan.

Ikkinchidan, O' va G' harflarini kompyuterda terish jarayonidagi mavjud muammolar baholiqudrat hal etilgan.

Uchinchidan, fonema talabiga to'la javob berolmaydigan, tovushlar uyg'unlashuvidan hosil bo'ladigan **Ng** harfi alif-

sitalarida ma'lum qilingan rasmiy ma'lumotlarning birortasida alifbodagi harflarning yozma shakliga to'xtalinmagan. Agar bunday shakl mavjud bo'lsa, buni, albatta, ommaga e'lon qilish kerak. Alifboga kiritilgan **Óó, Ğğ, Çç, Şş** harflari bu talablarga qay darajada javob beradi? Bu hisobga olinganmi? Shu bois alifbo ishlab chiqilishi jarayonida boshlang'ich sinf va amaliyotchi o'qituvchilarning fikri hisobga olinishi shart.

Ikkinchidan, alifboga kiritilgan **Óó, Ğğ, Çç, Şş** harflari mustaqil harf sifatida bir tizimda uchramaydi. Ular simvol-lar tizimida mavjud. Bu esa yana yangi dasturiy ta'minot — klaviatura dasturini talab qiladi. Agar bunday dasturiy ta'minot yaratilmasa, **Óó, Ğğ** harflari bilan matn terish jarayoni amaldagisidan ham mushkulroq bo'lishi mumkin. **Yunikod** tizimi orqali yoziladi. Ya'ni vstav-ka menyusiga kirib **символ+другие символ+сочетание клавиш+Alt+C+trl++заккрыть** amallarini ketma-ket bajarib klaviaturaga o'rnatish mumkin bo'ladi. Bu esa yetarli darajada kompyuterga oid bilimlarni talab qiladi. Bunga qodir bo'lmaganlar esa **Óó, Ğğ** harflarini yozishda yanada ko'proq muammoga duchor bo'ladi yoki boshqa biror sun'iy belgi bilan yozaveradi.

Uchinchidan, xalqimizda bir maqol bor: "Yomg'irdan qochib do'lga tutildim". Darhaqiqat, **Ngng** harf birikmasidan qutulib **Cc (u/ts)** ga duchor bo'lyapmiz. Alifboga **Cc (u/ts)**ning mustaqil harf sifatida kiritilishi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi:

— boshlang'ich sinf o'quvchilari bu harfini o'rganishga, farqlashga qiynaladi: avvalo, alifboda **Cc (u/ts)** harfi **Ss** va **Tt** harflaridan oldin joylashtirilgan, bu esa harf talaffuzini idrok qilishda qator muammolarni keltirib chiqaradi, qolaversa, tilimizda **Tt** va **Ss** harflari yonma-yon kelgan so'zlar ham mavjud (*adolatsiz, yotsira-moq*). **Cc (u/ts)** hamda **Tt** va **Ss** harflarini o'quvchilar emas, hattoki o'qituvchilar ham farqlay olmasligi mumkin;

— tahrir jarayonida **Cc (u/ts)** harf(lar)i ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga ajratishda muammo yuzaga keladi: *akat-siya (akaciya), litsey (licey)* kabi so'zlar qanday bo'g'inga ajratiladi? *li-cey* yoki *lic-ey*. Har ikki holatda ham sun'iy bo'g'inga ajratilayapti. Amaldagi lotin alifbosida esa *lit-sey, akat-si-ya* kabi ajratilib kelinar edi.

— **Cc (u/ts)** harfi hamda **Tt** va **Ss** harflarini so'zlarda aniq chegaraga qo'yib farqlash bahsli mavzuga aylanadi. Bu esa xilma-xillikni keltirib chiqaradi.

— **Cc (u/ts)** sifatida kiritilayotgan belgi hozirgi alifbodagi **Chch** harf birikmasining bir qismi hisoblanadi. Bu harf taklif qilinarayotgan alifboga to'liq o'tgunimizga qadard yangi alifboni o'rganayotgan yosh avlod **Chch** harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarda ushbu tovushni *ish/xp*; deb o'qiydi-ku, axir! *Charos so'zini tsharos/uxrapoc (o'qilishi); achchiq so'zini atshthiq/auxxuxuk(o'qilishi)* deb o'qishadimi?! Bunga javob berib ko'ring-chi?!

Menga tushunarsiz bo'lgan holat shuki, **Cc(u/ts) harfini alifboga kiritishdan qanday maqsad ko'zlangan?** Bu savolga javob bo'ladigan mantiqlarni izohlashga harakat qilamiz:

— *Millatimiz vakillari rus va Yevropa tillaridan kirgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlari kerak.* (Bu mantiqqa shaxsan men qo'shilmayman. Chunki ko'plab tillarda **Qq** va **G'g'** harflari yo'q. Ular bu harf bilan ifodalanadigan boshqa tildan kirgan so'zlarni o'z talaffuz me'yorlaridan kelib chiqib talaffuz qilishyapti va yozishyapti.) Bir qaraganda bu mantiq ham o'zining yetarlicha asosiga egadek. Masalan, *qanga — ombur, yex — kichik fabrika*. Bu so'zlarni amaldagi imlo qoidalariga asosan lotin alifbosida yozilsa, *canza — sanga; yex — sex* shaklini oladi. Bu esa ko'pchilimizga ma'qul bo'lmagan holatdek tuyuladi. Aslida-chi? Bu — tabiiy holat. Tilda shakldoshlik qonuniyati mavjud. Bunaqadir shakliiy o'xshashlik barcha tillarda uchraydi. Har ikki so'zning ham ma'nosini beradigan boshqa so'zlardan foydalansa ham bo'ladi. Bu esa atama-shunosligimiz oldidagi yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Cc (u/ts) harfi o'zbek tili leksikasidagi so'zlarning fonetik tarkibini shakllantirishda qanchalik faol ishtirok etadi? O'zbek tilining izohli lug'atini tekshirib chiqdik, **Cc(u/ts)** harfi bilan boshlanuvchi 63 ta so'z mavjud ekan, shulardan 10 dan ortig'ining o'zbek tilida varianti bor (*canza — ombur, qisqich* kabi), 10 dan ortig'i bir asosdan hosil qilingan (*цемент — цемент*amok kabi) so'zlardir. Demak, 40 ga yaqin so'z uchun biz alifbomizga yangi harf kiritayapmizmi? Demak, **Cc (u/ts) harfini alifboga mustaqil harf sifatida kiritmaslik kerak**. Chunki amaldagi lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalarida bu harfga yechim keltirilgan. Unga binoan **Cc (u/ts)** harfi so'z boshida kelsa, **Ss** harfi shaklida yoziladi: **цемент — sement**; so'z o'rtasida ikki unli orasida kelsa, **ts** shaklida yoziladi: **линей — litsey**; so'z oxirida kelsa ham, **Ss** harfi shaklida yoziladi: **кварц — kvars, шприц — shpris**. Bu qoidalar o'zbek tilining milliy fonetik xususiyatlari va talaffuzdagi o'ziga xosliklari asosida ishlab chiqilgan va maqsadga muvofiq ham. Ammo shuni aytish ham kerakki, so'z oxirida kelish holati to'g'risidagi qoida to'laqonli emas. Bu haqida to'xtalamiz.

Alifboni isloh qilishning "mevasi"

Alifboni isloh qilib biz nima topib, nimani yo'qotamiz? Bu islohot jamiyatning moddiy va ma'naviy dunyosiga katagina zarba bo'ladi. Buni tarix va zam-on ko'rsatib turibdi. Bizga yaqin qardosh bo'lgan qoraqalpqlarda ham yaqin yillarlar bir necha marotaba alifbo isloh qilindi (1994-, 2009- va 2016-yillarda. Ayrim yangi o'zgartirishlar kiritildi va yana oxirgi islohotda o'zgarishlardan voz kechildi). Bu ijobiy natijalarga olib kelmaganini bilamiz. Shuni ham aytish kerakki, ularning alifbosi haqiqatdan islohga muhtoj edi. Biz-

da esa umuman boshqa holat. Bizda alifbo isloh etilgandan keyin nimalar qilinadi:

— darsliklar va o'quv qo'llanmalari; — davlat ramzlari (bayroq, gerb izohi va madhiya); — konstitutsiya; — milliy valyutamiz; — qonunlar, farmonlar va kodekslar yangi alifboda nashr etilishi shart; — internet tarmoqlaridagi saytlar, dasturiy ta'minotlar yangi alifboda yozilishi shart; — butun xalq fuqarolik pasportining yangi alifboda yozilgan shaklini olishi kerak.

Xullas, kitob, noshirlik va matbaa bilan, ya'ni yozuv bilan bog'liq barcha o'rinlar yangi alifboda yozilishi shart bo'ladi. Bu esa anchagina vaqt (kamida yigirma yil) va mablag'ni (aniq hisobini aytish qiyin) talab qiladi. Eng yomoni, millatning kamida o'ttiz yil oraliq'idagi avlodlari "sarson", savodsiz bo'ladi.

Xulosa

Amaldagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida **O'o', G'g', Shsh, Chch, Ngng** va **Cc (u/ts)** harflari bilan bog'liq muammolar mavjud. Bu esa alifboni tubdan isloh qilish kerak degani emas, balki unga mos bo'lgan dasturiy-texnik ta'minot yaratish kerak. Chunki hozirgi texnologiya asrida bu mushkul ish emas. Masalan, J.G'ofurov tomonidan *O'zbekcha klaviatura.zip* dasturiy ta'minoti yaratilibdi. Unda **O'o'** va **G'g'** harflaridagi muammo o'z yechimini topgan. Demak, **Shsh** va **Chch** harflari bilan bog'liq bo'lgan yechimni ham ishlab chiqish mumkin. Ammo **Ngng** va **Cc (u/ts)** harflarini alifboga kiritmaslik kerak.

Ayniqsa, **Cc(u/ts)** harfini ham mustaqil harf sifatida alifboga kiritish maqsadga muvofiq emas. Imloda bu harfini quyidagicha ifodalashni to'g'ri deb hisoblaymiz: so'z boshida kelsa, **Ss** harfi shaklida yoziladi: **кварц** — *kvars*, **шприц** — *shpris*. Bu qoidalar o'zbek tilining milliy fonetik xususiyatlari va talaffuzdagi o'ziga xosliklari asosida ishlab chiqilgan va maqsadga muvofiq ham. Ammo shuni aytish ham kerakki, so'z oxirida kelish holati to'g'risidagi qoida to'laqonli emas. Bu haqida to'xtalamiz.

Xalqimiz foydalangan alifbolarni o'rganiib, taqqoslab shunday xulosaga keldikki,

Xulosa qilib aytganda, lotin alifbosida islohot qilish kerak. Kirill alifbosiga qaytish esa umuman olganda har tomonlama xalq zararigagina bo'ladi. Alifbo bilan bog'liq masala yuzasidan davlat o'zining siyosiy irodasini namoyon qilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

— *sirk, цемент — sement*; so'z o'rtasida ikki unli orasida kelsa, **ts** shaklida yoziladi: **механизация** — mexanizatsiya; so'z o'rtasida undoshdan keyin kelsa, **s** shaklida yoziladi: **гидроэлектростанция** — gidroelektrostantsiya; so'z oxirida ulnidan keyin kelsa, **ts** shaklida yoziladi: **ненец (xalq nomi) — nenets; блиц — blits, броненосец (harbiy kema) — bronenosets**; so'z oxirida undoshdan keyin kelsa, **s** harfi shaklida yoziladi: **кварц — kvars, герц (o'lovch birligi) — gers**. Bulardan boshqa farqli holatlar fonetik yozuv asosida imlo lug'atida aks etadi.

Shulardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, alifboni isloh qil-

ALIFBO								
Harf	O'qilishi	Yozilishi	Harf	O'qilishi	Yozilishi	Harf	O'qilishi	Yozilishi
Aa	a	Aa	Ll	el	Ll	Vv	ve	Vv
Bb	be	Bb	Mm	em	Mm	Xx	xe	Xx
Dd	de	Dd	Nn	en	Nn	Yy	ye	Yy
Ee	e	Ee	Oo	o	Oo	Zz	ze	Zz
Ff	ef	Ff	Pp	pe	Pp	Qq	qe	Qq
Gg	ge	Gg	Qq	qe	Qq	Gg	ge	Gg
Hh	he	Hh	Rr	er	Rr	Shsh	she	Shsh
Ii	i	Ii	Ss	es	Ss	Chch	che	Chch
Jj	je	Jj	Tt	te	Tt	Nngn	nge	Nngn
Kk	ke	Kk	Uu	u	Uu	(' ') tutqat belgisi		

masdan dasturiy ta'minot yaratish kerak, agar isloh qilinganida ham xalqni depressiyaga tushirmasdan minimum isloh qilish lozim.

Quyidagi takliflarni beramiz:
1-TAKLIF (minimum isloh qilish):
Aa, Bb, Dd, Ee, Ii, Ff, Gg, Kk, Hh, Jj, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, O'o', Vv, Xx, Yy, Zz, G'g', Shsh, Chch, ' (tutuq belgisi)

(Ngng harflar birikmasi alifbodan chiqarib tashlanadi.)

2-TAKLIF (to'liq isloh qilish):
Aa, Bb, Dd, Ee, Ii, Ff, Gg, Kk, Hh (Xx), Jj (Jj), Çç, Ll, Mm, Nn, Oo, Öö, Uu, Pp, Qq, Rr, Ss, Şş, Tt, Vv, Yy, Zz, Ğğ, ' (tutuq belgisi)

Bu ikkinchi taklif o'zbek alifbolarining tarixini o'rganish, o'quvchilar o'rtasida kichik eksperiment o'tkazish, natijalarini tahlil qilish va qardosh turkiy xalqlar alifbosi bilan o'zbek alifbosini qiyoslash asosida yosh avlodning alifboni idrok qilishini osonlashtirish hamda alifbo bilan bog'liq yozuvdagi muammolarni yo'qotish maqsadida ishlab chiqildi.

Xalqimiz foydalangan alifbolarni o'rganiib, taqqoslab shunday xulosaga keldikki,

alifboni to'liq isloh qilish yuzasidan bergan taklifimiz yozuvdagi quyidagi bahsli holatlarga yakun yasardi:

— "Ng mi yoki *N* va *G* mi?" degan savolga barham beradi; — "X mi yoki *H* mi?" degan savolga barham beradi; — "C*(u)* mi yoki *T* va *S* mi?" degan savolga barham beradi; — "X mi yoki *H* mi?" degan savolga barham beradi;

— "O'o', G'g', Shsh, Chch" harflaridagi ortiqcha ovoragarchiliklar yo'qoladi; — talaffuzi yaqinroq bo'lgan harflarni alifboda yonma-yon berish o'quvchilar uchun tovushlarning talaffuzini idrok qilishga imkon beradi.

Izoh:
O'o', G'g' harflari ularning yozma shakli asosida shunday belgi qabul qilingani ma'qul.

Xx va **Hh** ning yozuvda bir harf bilan ifodalash taklifi turkiy alifbolarni qiyoslash va o'quvchilar orasida o'tkazilgan eksperiment natijasi asosida berilyapti. Bizga qardosh bo'lgan turkman, turk, qozoq va qirg'iz xalqlari alifbolarida bu ikki nutq tovushi (*Xx* va *Hh*) umumiy bitta belgi — **Xx** yoki **Hh** bilan ifodalanadi. Bu esa yozuvni faqatgina qulaylashtiradi. Nutqda esa ularning talaffuzi saqlanib qolaveradi. Bundan xalq faqat manfaatdor bo'ladi. Biz **Hh** harfini tanlashimizga sabab o'zbek tili leksikasidagi so'zlarda **Xx** harfidan ko'ra **Hh** harfi qariyb ikki barobar ko'p uchrar ekan. Ammo jonli nutqda ko'pchilik **Hh** undoshini **Xx** ga yaqin talaffuz qiladi. Shuni ham aytish kerakki, bu ikki harfini birlashtirish tilimiz leksikasiga jiddiy zarar bo'ladi, deb tasavvur qiladi. Aslida esa bu holat xalqning jonli nutqiga hech qanday ta'sir qilmaydi, aksincha, yozma nutqini qulaylashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, lotin alifbosida islohot qilish kerak. Kirill alifbosiga qaytish esa umuman olganda har tomonlama xalq zararigagina bo'ladi. Alifbo bilan bog'liq masala yuzasidan davlat o'zining siyosiy irodasini namoyon qilishi maqsadga muvofiq. Shunda millat uchun har qanday holatda ham foydali bo'ladi. Chunki bu masalaga nuqta qo'yilmas ekan, yaqin yigirma yilda ham bahsli muammo bo'lib qolaveradi.

Shohrux ABDURAIMOV,
filolog

"Gulliverning sayohatlari" romani antiqa davlatlarning antiqa odamlari haqida hikoya qilgani uchun ham kitobxonlarni o'ziga jalb etadi. Asarda tilga olingan Liliputiya va Brobdingneg dunyo xaritasida mavjud emas, biroq "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit" qabilida yaratilgan bu asarning asosiy maqsadini o'quvchi anglay oladi.

Qizim, senga aytaman...

Gulliverning liliputlar mamlakatiga borib qolgan holatini eslang. Aholi hayotidagi mantiqsizliklar ularning har bir xatti-harakatida ko'rinib turadi. Imperatorning mustaqil fikrga ega emasligi, mulozim tayinlashdagi ahmoqona o'yinlari, qo'shni davlat bilan arzimagan sababga ko'ra urush boshlagani, rostini aytсам, kulgimni qistadi.

Ulkan odamlar mamlakati — Brobdingneg aholisi tomoshaga o'ch, o'zidan kichiklarni mensimaydigan xalq. Dastavval Gulliverni topib olgan xo'jayin uni qo'g'irchoqdek o'ynatib,

xalqqa tomoshalar ko'rsatadi. So'ng xuddi shaxsiy buyumidek uni qirolichaga ming tillaga sotib yuboradi. Qirolichaning yangi ovunchog'ini ko'rolmagan pakana Gulliverning joniga bir necha bor qasd qilishga urinib ko'radi. Faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan insonlar jamiyat uchun ham juda xavfli ekani asarda ochiq-oydin aks etgan.

Asarni o'qir ekanman, davlatdagi qonun-qoidalar qanchalik adolatli va to'g'ri bo'lsa, mamlakat shunchalik taraqqiy etishini anglab yetdim.

Gullinor XOLMURODOVA,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'quvchisi

Yurgan daryo

Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asari menga juda yoqdi. Gulliver boshidan kechirgan g'aroyibotlar haqida o'qib, uning o'rnida bo'lib qolgim keldi.

Sayohatlar davomida qanday vaziyatga tushmasin, uning o'zligini, o'z vatanini unutmay, dovyuraklik bilan bildirgan fikrlari va harakatlari diqqatimni tort-

di. Zero, xalqimizda bir gap bor: "Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra". Gulliver ham liliputlar, bahaybatlar, soxta olimlar, otlar va yexular yurtlarida bo'lib, ular hayotidagi

kamchilik va yutuqlarni, yaxshi va yomon jihatlarni daryo kabi toshib, jo'shib bizga hikoya qiladi. Gulliver sayohat qilgan mamlakatlarning hech biri xaritada yo'q. U aslida xayoliy davlat va xayoliy voqealar orqali jamiyatni parokandalikka olib keladigan ilatlarni ko'rsatib bergan.

Sultonali RUSTAMOV,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi



Zamonlar osha

Gulliver yashagan davrdagi turli qiyofa, xarakterdagi odamlarning illat va fazilatlarini bugungi ilg'or jamiyatimizda ham uchratish mumkin. Masalan, liliputlar kabi maydachuyda narsalarga o'ralsahib, hayotdagi asosiy maqsadini unutgan kishilar bugun ham uchraydi.

Arimagan gapni fojia qilib, buyum yoki yer-joy deb bir-biri bilan yuzko'rmas bo'layotganlar siymosida liliputlarni ko'rdim. Erishgan kichik yutug'idan havolanib, o'zini dunyoning ustuni deb bilgan takabbur kimsalarni laputaliklarga qiyoslayman. Turli ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan vahshiyliklar aks etgan videotasvirlar, OAVda yoritilayotgan jinoyatlar, xunrezliklarni ko'rib, ba'zilar hech bir yexulardan orqada qolmayotgandek tuyuldi. Odam bolasi qanchalik bilimli, badavlat, jismonan kuchli bo'lmasin, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmasa, komillik darajasiga erisha olmaydi. Men "Gulliverning sayohatlari" asarini o'qib, shularni angladimki, insonning asl insoniyligi, avvalo, uning insoniy qiyofasini yo'qotmay egzulikka intilishidir. O'z qobig'iga o'ralsahib qolganlar kelajagini qurolmaydi, dunyoni ham faqat o'z nazarida mayda narsalardan, yomonlik, takabburlikdan iborat deb o'ylaydi. Maqsad ulug' va ezu bo'lsa, taraqqiyot ham shu qadar o'sadi.

Shahina HASANOVA,
Romitan tumanidagi 13-maktab o'quvchisi

Gulliverga maktub

Salom, Gulliver! Ajoyib va g'aroyib voqealarga boy, o'n olti yil-u yetti oydan ko'proq davom etgan sayohatingizda siz bilan birga bo'ldim. Taassurotlarim bir olam. Kema shifokori sifatida boshlagan sarguzashtlaringiz meni juda hayratlantirdi.

Laputa, Lagadoda kabi olimlar vatanidagi mulqotlarning davomida umrini behuda kashfiyotlarga sarflayotgan ixtirochilarga ich-ichingizdan achindingiz. Men ham achinish barobarida mazza qilib kuldim. Ayniqsa, til-

shunoslarning tildagi barcha so'zlarni yo'qotib, o'miga buyumlarni yonida ko'tarib yurib, ular orqali so'zlashish haqidagi fikriga nima deysiz?

Ayanchli keksalikka mahkum odamlarning mehr-muhabbatdan mahrumligini o'qib, men ham dahshatga tushdim. Qiziqarli sayohatlariningizning so'nggisi ongli, olijanob otlar va yovvoyi odamlar yurtidagi sarguzashtlaringizdir. Gulliver, menimcha, siz ham ongli otlar timsolida ma'naviyati yuksak insonlarni, yexular timsolida esa

jaholat, ma'naviy qashshoqlikka yuz tutgan kimsalarni ko'rdingiz. Albatta, jonajon yurtingiz Angliyaning ana shu yexularga o'xshash illatli kishilardan xalos bo'lishini istashingizni sezish qiyin emas. Zero, ochko'zlik, hasad, poraxo'rlik, munofiqlik bor yerda — adolat qaror topmagan joyda halokat muqarrardir.

Mohinabonu RUSTAMOVA,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi

Xayoliy sayohat

Sarguzasht — jon-u dilim. Shifokor Gulliver bilan uzoq va mashaqqatli safarga chiqdim. Sayohat 16 yil-u yetti oy davom etdi. Men bu vaqtda qahramonimning boshidan kechirgan qo'ruqviga, hayratiga, quvonchiga, taajjubiga guvoh bo'ldim. Qiziqarli sarguzashtlarni o'qish bilan birga tarix va geografiyaga oid bilimlarim mustahkamlandi.

Asarni o'qish davomida Liliputiya va Blefres o'rtasidagi urushni tinch yo'l bilan hal qilgani uchun Gulliverdan juda minnatdor bo'ldim. Ojiz qolgan paytlari xuddi o'zim shu

vaziyatga tushib qolgandek qo'rqdim. Pakana arilar, maymun, kuchuk kabi hayvonlar olishuvidan sarosimaga tushdim.

Asar insonlarning xarakteri turli timsollar

orqali ochib berilishi bilan qiziq. Bu roman rang-barang voqealari, qiziqarli xayoliy uydirmalari bilan menga juda yoqdi.

Nuriya YARASHEVA,
Pitnak shahridagi
9-maktab o'quvchisi

Gulliverdan o'rganganlarim

Inson hayoti davomida sayohatlarga chiqsa, ko'p hikmat o'rganadi. Ayniqsa, boshqa davlatlarga borsa. Sayohatchi til bilishi, geografik, tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart.

Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asarini o'qib, o'zim yashayotgan qadim Buxoroning manzaralari tasavvurimda jonlandi. Asarni o'qish barobarida, menda ham chet davlatlarga sayohat qilish istagi uyg'ondi. Hozir imkoniyatim yetarli bo'lmasa-da, dilimga shu maqsadni tugib qo'ydim. Niyatimga erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlarda qatnashyapman. Kelgusida xorijiy tillarni mukammal o'rganib, turli davlatlarga sayo-

hatga chiqaman. Boshqa xalqlarning urf-odati, madaniyatini o'rganish niyatim bor. Albatta, qayerda bo'lishimdan qat'i nazar, yurtimning odamlarini, milliy urf-odatlarimizni unutmayman.

Feruza G'ANIYEVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

To'g'rilikni o'rgatgan asar

"Gulliverning sayohatlari"ni o'qib, hayotda har qanday qiyinchiliklarga sabr qilib, qalbga quloq solib yashash kerakligini his etdim.

Avvaliga bu kitobni shunchaki "sarguzasht asar" deb o'ylagandim. Uni qayta-qayta o'qigach, majoziy masallar yodimga tushdi. Keyinchalik bildimki, bu nafaqat sarguzasht, balki hayotiy asar ekan. Hayotda ham adib tasvirlagan jamiyat, odamlar yo'q emas. Demak,

yo'zuvchi bu asarni o'z hayot va xayol olamini ishga solib yozgan.

Inson hamma narsaga chidashi mumkin, lekin nohaqlik, adolatsizlik, vijdon-sizlikka chiday olmaydi. Asarning barcha qismlarida mana shu illatlar qoralanganiga guvoh bo'ldim. Hayotni uzun yo'lga, o'zimni yo'lovchiga o'xshatdim. Bu yo'lga turli mashaqqatlar, sinovlar-ga duch kelamiz. Muhimi, o'zligimizni yo'qotmaslik.

Umida SOBIROVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi



Ma'naviyat va ma'rifat — taraqqiyot qanoti

Farzandga pul emas, mehr bering!

Har bir ota-ona farzandining kelajagi porloq bo'lishini istaydi. Uning boshqa tengqurlaridan kam bo'lmisligi uchun moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Yemay yediradi, kiymay kiydiradi. Albatta, bu barcha insonlarga xos bo'lgan xususiyat. Ayniqsa, farzandining moddiy ehtiyojini qondirish uchun ota-ona bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

Mehr — ko'ngillarning malhami

Komiljon SULTONOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bosh mutaxassisi:

— Pul yaxshi narsa, ammo u o'z nomi bilan "qo'lning kiri". Pul, mol-dunyo farzandning kamoli va baxt-u iqboli uchun zamin bo'lmaydi. Bunday yondashuv va munosabat oxir oqibat bolaning boqimandalik illati girdobiga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Zero, boqimandalik illati insonda aynan bolalikdan shakllanadi. Bu bor gap. Demak, farzandning oilaga, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lib yetishishi uchun, uning nafaqat moddiy, balki ma'naviy ehtiyojini ham qondirish zarur. Bu yuksak vazifani amalga oshirish ota-ona hamda o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi va kelajakda, albatta, o'zining ijobiy natijasini beradi.

Ma'naviy ehtiyoj insonning yuksalishi va ruhan kamoloti uchun eng zarur bo'lgan ehtiyojdir. Ma'naviy ehtiyojning eng asosiy omillaridan biri bu mehrdir. Manbalarda yozilishicha, ma'naviy ehtiyojlar insonda ona qornidaligidayoq paydo bo'ladi. Ya'ni, tug'ilajak farzand onasida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan birga nafas oladi. Onani kimdir ranjitsa yoki aksi — ona sevinisa, bolada ham shu jarayon sodir bo'ladi. Hali tug'ilmaganda go'dak ona qornida unga ko'rsatilayotgan mehr va qahri farqlay oladi. Unga tashqaridan yetarli e'tibor ko'rsatilsa, u orom oladi, sevinadi yoki aksi bo'lsa, bezovta bo'ladi, chunki unda ma'naviy ehtiyoj bor.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Nega bugungi kunda odamlar orasida mehr-muruvvat tanqis bo'lib borayapti? Nega yurtimizda yosh avlodni sog'lom, bilimli va zukko qilib tarbiyalash borasida keng imkoniyatlar yaratilayotgan bir paytda, ayrim yoshlarimiz jinoyat yo'liga kirib qolmoqda?

Ushbu savollarga javob topish uchun ajdodlarimizning bola tarbiyasiga doir tajribalariga murojaat qilishni lozim topdik. O'zbek xalqi azaldan bolajon bo'lganligi uchun, o'z farzandlarini mehr bilan o'stirishga, ularga o'rnatilgan bo'lgan harakat qilgan. Bobo-momalarimiz farzandlar oldida aniq chegara va talablar qo'yib, odob-axloqli bo'lishga, o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishga o'rgatishgan. Maktab (madrasa) davridan boshlab esa, farzandlarni qattiqdaro'lik va talabchanlik bilan tarbiyalashga e'tibor qaratishgan. Bolalar xulqi, qobiliyati va yutuqlariga qarab ota-ona va ustozlar tomonidan rag'batlantirilgan.

Xo'sh, bugun-chi?

Keyingi yillarda bola axloqiga, umuman, ta'lim-tarbiyasiga doir noxush holatlar yuzaga kelganda, barcha mas'uliyatni maktab va maktab o'qituvchilari zimmasiga yuklashga o'rganib qoldik. Vaholanki, hali ham oramizda shunday ota-onalar uchrab turadiki, ular farzandining na o'qishdan xabar oladi, na qanday ta'lim olayotganiga qiziqadi. Mabodo, o'qituvchi-murabbiylardan birotasi uning

farzandini urishib, tanbeh berganini eshitib qolsa, kelib o'qituvchining yoqasidan oladi, uni haqorat qilishgacha boradi.

Maktabda o'qib yurgan kezlrim o'zim shunday holatning guvohi bo'lganman. Unga berilgan vazifani bajarmagan, boz ustiga darsga kechikib kelgan o'quvchini orqa partaga o'tqizgani uchun, o'sha bolaning otasi kelib sinf rahbarini hamma o'quvchilar oldida haqorat qilgan edi. Achinarli tomoni shundaki, "hurmatli otaxon" bu qo'pol harakati bilan nafaqat o'qituvchining obro'siga, balki o'z farzandining tarbiyasiga ham jiddiy zarar yetkazgan edi. Zero, muborak hadisda aytilganidek, hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish uchun, avvalo, ularning ma'naviy ehtiyojlarini ilimga, ezgulikka to'yintirish va bizdan kutilayotgan mehr va e'tiborga munosib javob berish mas'uliyatini unutmashimiz lozim. Zero, mehr odamlarni birlashtiruvchi, yaxshilikning asosi, ko'ngillarning malhamidir. O'tkir Hoshimov ta'kidlaganidek: "Odam hamma narsaga to'yishi mumkin. Boylikka... Amalga... Shon-shuhratga... Xudoning o'zi kechirsin-ku, hatto, hayotga ham... Qariganda "Omonatingni ola qol, Yaratgan Egam" deyidiganlar chin dildan gapiradi... Odam hamma narsaga to'yishi mumkin. Faqat bir narsaga — Mehrga to'yaydi. Bu masalada shoh-u gado barobar. Holbuki, dunyoda bundan arzon narsa yo'q. Bir og'iz shirin so'z, bir chimdim mehr kimni o'ldiribdi! Biz esa, shuni ham bir-birimizdan ayaymiz..."

Farzandlarimizga o'rnak bo'laylik!

Muhayyo ISMOILOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutaxassisi:

— Bugun tarbiyaning katta muammolaridan biri ota-onaning farzandiga yetarlicha vaqt ajrata olmayotganligi bilan chambarchas bog'liq. Mehr hammaga kerak. U hali tug'ilmaganda go'dakdan tortib, keksalargacha zarur bo'lgan tuyg'ulardan. Unda insonni o'zgartira olish xususiyati bor. Ha, u qalb xastaligiga malham bo'lib, uni davolaydi.

Kuzatgan bo'lsangiz, bolalar kattalarning samimiy harakatlarini, mehr bilan aytgan gaplarini tezda eslab qoladilar: tushlicha uchun otalarimizning onamizga aytgan rahmatlari, buvjonlarimizning ko'zoynaklarini topib berishlarini so'rab bizga aytgan "iltimos"lari, kinningdir kichkintoyga nisbatan "siz" deya murojaat qilishi. Bu bolalar uchun "Sen bunday deyishing kerak", "bunday qilishing kerak" deb o'rgatilganiga nisbatan ancha tezroq ko'nikma hosil qiladigan yo'ldir.

Uch yoshgacha bo'lgan kichkintoylar kattalarning muloyim so'zlari hamda harakatlarini tezda ilg'ab olib, qaytarishni boshlaydilar. Bu davrda bolakaylar rahmat aytish, salomlashish, xayrli tun tilash, dasturxon atrofida o'zini qanday tutish kabi dastlabki ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shuning uchun kichkintoylarga nima yax-

shi-yu, nima yomonligini yotig'i bilan tushuntirish lozim. Chiroyli xulq-atvor harakatlarini maqtab qo'yish ularida yanada maqtovg'a sazovor bo'lish hissini kuchaytiradi. Masalan: "Qo'shnimizga salom berganing meni rosa ham quvontirdi. Juda aqlli bolasan" yoki "Buvijoningga "xo'p bo'ladi" deganing uchun kel bir o'pay, aqlli qizim" kabi.

Bolaga ulkan emas, hech bo'lmasa, ota-onalik mehrini bering!

Habiba ALIMOVA, Yangiyo'l tumandagi 3-maktab o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi:

— Bugun hamma narsa zamonaviylashib ketayapti. 10-15 yil oldingi odamni bugun topolmaysiz. U o'zgaragan. Zamonaviylashgan qiyofada. Ammo zamonaviy insonga bugun nimadir yetishmayotgandek. Bu narsa MEHR bo'lib, negadir uni berishdan qizg'anyapmiz, xoh u inson, xoh u hayvon bo'lsin!

Oldingizdagi farzandingizdan izlang-chi, topolarmikansiz. Qarindoshurug'larni-ku, aytmagangiz ham bo'ladi.

Shuni bilib oling, ro'zg'or tashvishlari hech tugamaydi. Ish, ro'zg'or deb yelib-yugurishni biroz kamaytirib, bola tarbiyasiga e'tibor berish kerak. Bola tarbiyasidagi o'zina qora chiziqli ham kun kelib o'z samarasini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Bugungi bolalarimizning dasta pul, qimmatbaho telefon, brend kiyimlardan ko'ra mehrga ko'proq ehtiyojlari bor. Ma'lumki, o'smirlik — eng inij davr. Bu yoshdagilarning ba'zilar o'zlarini "katta odam" qilib ko'rsatish maqsadida teskari harakatlarni amalga oshirishni istaydilar. Bu bilan ular "o'zlarining dunyolari" mavjudligini, ular ham to'laonli mustaqil shaxs ekanligini atrofdegilarga ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bilasizmi, o'smirlik davrida yoshlarda qo'pollik hamda jizzakilikning paydo bo'lishi, bu ularga kattalar tomonidan yetarli darajada mehr, e'tibor berilmagligi oqibatidir. Aynan o'smirlik davrida bolaga ota-onaning har tomonlama ko'magi kerak. Chunki aynan shu davrda farzand katta hayotga qadami qo'yadi, kelajagini belgilaydi.

Ayrim otalar bolalari uchun o'zgina e'tibor, mehr kerakligini har doim ham his qilavermaydilar. Qolaversa, bugun ba'zi oilalarda erkak tarbiyasiga xos jihatlar yetishmayapti. Bola uchun bu juda zarur. Nafaqat o'g'il bola, balki qizlarning tarbiyasida ham otaning alohida o'rni bor. Axir qadimdan otalar oila qalqoni, farzandlar posboni hisoblangan!

Ota-ona pul topish ilinjida farzandiga keraklicha vaqt ajratolmas, farzandi bilan yetarli darajada suhbatlashmas, birga vaqt o'tkazmas ekan, bolalar odamovi bo'lib, yolg'izlanib qolishadi, bilib-bilmay turli noto'g'ri yo'llarga kirib ketishadi. Achinarlisi, o'z ko'zlari bilan ko'rayotgan hodisa va harakatlar asosida tarbiyalanib boradilar. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deganlaridek, ular ota-onalaridan vaqtida ololmagan tuyg'ularini, ertaga farzandlariga ham berolmaydi. Bu esa avloddan-avlodga o'tib, jamiyat uchun noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuni unutmangki, bugun sizning bolangizga berayotgan mehringiz albatta, o'zingizga qaytadi... Jondan ortiq sevgan farzandingiz, jigarbandingiz sizdan pul, mol-dunyo emas, faqat MEHR kutadi,

MEHR! Xuddi kishi keksayganda atrofdegilarning har qancha bo'lsa ham, e'tibori va mehrini kutayotgandek...

Qarang, mehr nimalarga qodir!

Jahongir QO'CHQOROV, psixolog:
— Bilasizmi, mehr berishning va olishning ham kishi salomatligiga ta'siri bor. Agar bolangizni yetarlicha bag'ringizga bosib mehrga to'yintirmasangiz, immuniteti tushib, shijoati, topqirliqi susayib ketadi. Voyaga yetgach esa mehr-muhabbatli bo'lib hayot kechirishga layoqatsiz bo'lib qoladi.

Shu bois har kuni bolani kamida 25 marta quchoqlab mehr berishingizga to'g'ri keladi.

Ushbu aytilganlarga rioya qilmasangiz, u ijtimoiy hayotga ko'nikib ketishi qiyin bo'ladi. Xo'sh, quchoqlab mehr berish bizga nima beradi?

1. Uyquni yaxshilaydi.
2. Yoshartiradi.
3. Yurak xastaligining oldini oladi.
4. Oksitotsin gormonini ko'paytiradi.

Bu depressiyani ketkazadigan gormondir.

5. O'zingizga bo'lgan hurmatingizni oshiradi.

6. Qo'rquvni va yolg'izlik hissini yo'qotadi.

7. Ayniqsa, er-xotin muhabbatini yanada ziyoda qiladi.

Tun-u kun pul topish harakatida yurib, farzandlari uchun vaqt, mehr ajratolmagan aziz ota-onajonlar, bolangizni bag'ringizga qattiq bosing, mehr bering. Bu oltin javohirlarga topilmas, bebaho bo'lgan mehringizni ulardan ayamang.

Qariganingizda albatta yuz chandon bo'lib qaytadi.

Quyidagi hikoya shu haqida:

Ota qo'y go'shtidan tayyorlangan kabobni juda yaxshi ko'rardi.

Buni bilgan o'g'il u kishini yaxshi bir oshxonaga olib boribdi. Avvaliga ota kabobini o'zi yeyishga harakat qilibdi. Har safar ovqatini og'ziga olib borganida qariligi sababli qo'llari titrab, taomi soqoli-yu atrofiga to'kildi. Oshxonada o'tirganlarning nazari ularga qaratildi. Past nazar ila qarashlar, maxsaraomuz jilmayishlar va kayfiyati buzilgan chehralar. O'g'il esa sabr bilan otasiga taom yedirishni boshladi.

Nihoyat taom tugadi, o'g'il otasini suv oldiga yetakladi, og'iz-qo'llarini, yog'tomgan soqolini yuvib, ko'zoynagini artib taqib qo'ydi. Keyin esa otasini qo'ltiqlab chiqish eshigi tomon yurdi.

Norozni nazarlarga qaramay o'g'il xursand edi, chunki otasini xursand qilgan edi u. Ovqat pulini to'lab chiqib ketayotgan o'g'il ortidan bir amakining ovozi eshitildi: — Hoy, o'g'lim, bu yerda bir narsa qoldirib ketding!

Yana nazarlar ular tarfaga burildi.

Biroz o'ylangan yigit:

— Hech narsa qoldirmadim, amaki, — deb javob berdi.

Amaki:

— Bolam, sen bu yerda juda qimmatbaho narsa qoldirding!

Shoshib qolgan yigit:

— Nima qoldiribman, amaki?!

— Sen bu yerda har bir farzand uchun dars, har bir OTA uchun umid qoldirib ketyapsan!

Keling, azizlar, bu borada bir o'yab, mushohada qilib ko'raylik. O'z jigarbandingizdan, yaqinlaringizdan vaqtigizni, mehringizni ayamang. Bir kun kelib, albatta, parvarishlab o'stirgan "daraxt"ingizning shirin mevalarini ko'rib, bahridilingiz yayraydi. O'sha baxtiyor kunlarni ko'rib, beixtiyor ko'zingizga quvonch yoshlari keladi.

Kamola AHMEDOVA

Ijod maktablarida

Adabiyot — ajoyibot olami

Qoraqalpog' tili va adabiyotining yana ham go'zal, jozibali bo'lishi, taraqqiy etishi yo'lida butun hayotini bag'ishlagan, ko'ngillarga yaxshilik urug'ini ekkan inson — O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroym Yusupov bugun xalqimiz yuragida. Uning she'rlari shoir hayotlik vaqtidayoq ko'ngillardan joy olib, tillardan tillarga ko'chib, xalq mulkiga aylanib ulgurandi. Donishmandlardan biri aytganidek, "shoirilarini e'zozlagan yurtning toleyi balanddir". Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning adabiyotga qaratayotgan yuksak e'tibori, shoir ijodiga bergan yuksak bahosi namunasi sifatida Nukus shahrida Ibroym Yusupov nomidagi davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati qad rostlagani xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

Tilga e'tibor — elga e'tibor, deya bejiz aytilmagan. Negaki chet tillarni o'rganishga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda, avvalo, o'z ona tilimizni yanada chuqurroq o'rganish zarurati tug'ildi. O'z ona tilini bilmagan kishi o'zga tili ham mukammal o'zlashtirilmagisi — haqiqat.

Zamonaviy uslubda qurilgan, qulay shart-sharoitlarga ega maktab-internat, asosan, qoraqalpog' tili va adabiyoti fanlariga ixtisoslashtirilgan bo'lib, iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida o'qishga qabul qilinadi. 216 o'rinni ta'lim muassasasida olis tumanlardan kelib, tahsil oluvchilar uchun yotoqxonaga ham qurilgan. Shuningdek, 50 o'ringa mo'ljallangan oshxona, 100 o'rinni faollar zali, kutubxona va mazkur maktab-internat qoshida tarjima markazi, kichik bosmaxona, sport zali, kichik futbol maydonchasi, fizika, kimyo laboratoriya xonalari, 2 ta ingliz tili, 1 ta tasviriy san'at, 1 ta informatika, 2 ta texnologiya va 10 ta o'quv xonasi bolalar xizmatida.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 15-16-dekabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida maktabimizda ham bo'lgandi, — deydi maktab-internat direktori Faraxad Palimov. — Yurtboshimiz shunday ijod maktablarini ko'paytirish zarurligini ta'kidlab, maktablararo tanlov va ijodiy uchrashuvlarni o'tkazishga alohida ahamiyat berish zarurligini aytgandi. Shuningdek, iste'dodli yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, tarbiyalash maqsadida ijod maktabi o'quvchilarining har 10 nafarini hududdagi taniqli shoir va yozuvchilarga biriktirish taklifini ham bildirgandi. Bugungi kunda maktab-internatimizda 280 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Ularning har 10 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bilan kelishish holda shoir va yozuvchilarga biriktirilib, ular bilan muntazam birga ishlab, turli uchrashuv, ijodiy kechalarda faol qatnashib kelmokda. Shuningdek, ta'lim muassasamizda "Oq yo'l — yosh qalamkash", "Yosh adabiyotshunoslar", "Yosh ijodkor", "Yosh tarjimonlar", "Publitsistik asar sirlari", "Notiqlik san'ati", "Biz — Ayaziylar izdoshlari" (Ayaziylar — I. Yusupovning taxallusi) kabi to'garaklar tashkil etilgan.

Aytilgan joiz, maktab-internat o'quvchilari va o'quvchilarining dam olishi, dunyoqarashini kengaytirishi, ilmfan yangiliklaridan boxabar bo'lishi, o'z bilimlarini yanada boyitishi uchun Prezidentimiz maktab-internatga sovg'a qilgan "Isuzi" rusumli avtobusda res-

publikamizning tarixiy maskanlariga, ziyoratgohlarga sayohat uyushtiriladi.

Muassasada o'ziga xos ziyoli muhit yaratilgan. Boisi, pedagogik jamoaga oliy va birinchi toifali o'qituvchilar tanlov asosida qabul qilingan bo'lib, ular yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarda ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishadi, bola psixologiyasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, har bir ishga ijodiy yondashishadi.

— Til — millatning ma'naviy boyligi, o'zligi timsoli, — deydi maktabning qoraqalpog' tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, "Do'stlik" ordeni sohibasi Gulistan Xojalepesova. — Tilni yaratadigan — xalq, uni takomillashtiradigan, rivojlantiradigan esa ziyoli kishilar, olim-u shoir-yozuvchilardir. Maqsadimiz adabiyotni tushunadigan, she'riyatga oshno, ko'ngli yaxshilikka tashna yoshlarni tarbiyalashdir. Zero, adabiyotda hurfiylik, taraqqiyot — odamiylik asosi.

Maktab-internatda yaratilgan sharoitlardan oqilona foydalanib, o'quvchilar turli tanlovlarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Jumladan, 11-sinf o'quvchisi Ayjamal Kaliboyeva 2018-yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 80 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasida ishtirok etib, I.A. Karimov nomidagi xayriya fondi tomonidan esdalik "Oltin medali" va tashakkurnoma bilan taqdirlandi. 2018-yil 26-aprelda Rus milliy madaniy markazi tomonidan o'tkazilgan "Знаешь ли ты историю России?" insholar tanlovida faxrli 1-o'rinni egallab, 2018-yil avgust oyida Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahridagi tarixiy joylar, muzey va qadamjolar bilan tanishdi. 10-sinf o'quvchisi Gulparshin Joldasboyeva esa 2018-yil 1—7-iyul kunlari Yaponiyaning Tokio va Nagoya shaharlarida bo'lib o'tgan "Sakura Science Exchange program in Japan" nomli konferensiyada qatnashib, sertifikat bilan taqdirlandi. 10-sinf o'quvchisi Abdurashid Smaylov 2018-yil 23-may kuni Yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston respublikasi kengashi tomonidan o'tkazilgan "Ayaziylar izdoshlari" tanlovining Respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi. Shu kungacha maktab-internatning iqtidorli o'quvchilaridan B.Reymboevaning "Bog'imdagi qush", M.Kobeysonovning "Men bahorni sog'indim", M.Ibragimovning "Atirgul", A.Karimboevaning "Eng zo'r sovg'a" nomli kitoblari nashr etildi.

Ijod — bu o'qish degani. Ekinning



yaxshi unib-o'sishi uchun uni sug'orib turish naqadar muhim bo'lganidek, yangi fikr, yangi g'oyalar tug'ilishi uchun ongimizni ham muntazam ravishda kerakli bilimlar bilan oziqlantirib turish kerak. Bilim asosi — kitobda. Har bir ta'lim muassasasining yuragi esa — kutubxona. Yurtboshimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratgan e'tibori natijasida yurtimizda ko'plab xayrli ishlarga qo'l urildi. Kitob aksiyasi doirasida ta'lim muassasalari kutubxonalarning kitob fondi ancha boyidi. I. Yusupov nomidagi maktab-internatga ham O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nomidan O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid 500 dan ortiq kitob sovg'a qildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiklari A. Saydov, K. Abdurahmanov, N. Ayimbetov ham 50 nomdagi turli kitoblarni sovg'a qilishdi.

— Maktabimizda "Kitobxon o'quvchi", "Eng targ'ibotchi kitobxon" kabi tanlovlar, yurtimizga taniqli kishilar bilan "Yangi kitoblar taqdimoti", "Adabiyot shaydolari" nomli uchrashuv kechalari o'tkazilib turadi, — deydi "Zomin-2019" ijodkor yoshlar seminari ishtirokchisi, maktab-internatning 9-sinf o'quvchisi Biybijamal Reyimboyeva. — Shu qatori o'qituvchi va o'quvchilarning ko'ngili dam olishi, dunyoqarashimiz yuksalishi, ilmfan yangiliklaridan boxabar bo'lishimiz uchun yurtimizning tarixiy joylari, muzey va madaniy nuqtalariga tez-tez sayohat qilib turamiz. Menga hammasidan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroym Yusupovning tug'ilgan diyori — Chimbov tumanidagi uy-muzeiga uyushtirilgan sayohat juda manzur bo'ldi...

Ta'lim muassasasi yoshlari nafaqat adabiyot, balki sport bilan ham doimiy hamroh. Yutuqlar ham izlanishlarga yarasha. 2018-yil 28-aprel kuni Nukus shahrida qo'l yangi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi chempionatida maktab-internatning 10-sinf o'quvchisi Dao'letiyar Shariboyev 1-o'rinni egallab, Jizzax viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 2019-yili Nukus shahar ochiq birinchiligi-da 2004-2005-yili tug'ilgan o'smirlar orasida qilichbozlik bo'yicha 7-sinf o'quvchisi Nao'riz Qalboyev 2-o'rinni,

stol tennisi bo'yicha 8-sinf o'quvchisi Ay-nura Po'latova 1-o'rinni egalladi. Yoshlar ittifoqi tomonidan o'tkazilgan "Yoshlar shaxmat taxtasi" respublika ochiq turnirining Nukus shahri bosqichida 13 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida 6-sinf o'quvchisi Sherzod Sayimbetov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

2019-yil 17-martda Qoraqalpog' davlat yosh tomoshabinlar teatrida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tomonidan umumta'lim maktablari orasida o'tkazilgan "Eng namunali sardorlar kengashi" tanlovining respublika bosqichida maktab-internatning "Ayaziylar" jamoasi faol qatnashib, faxrli 1-o'rinni egalladi va Namangan shahrida bo'lib o'tgan final bosqichida ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

2018-2019-o'quv yilida "bilimlar bel-lashuvi"ning shahar bosqichida 4 nafar o'quvchi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Fan olimpiadasining respublika bosqichida iqtisod fanidan 9-sinf o'quvchisi Manzura O'rinboyeva 1-o'rinni egalladi.

2019-yil may oyida maktab-internatning 11-sinf o'quvchisi Muhina Ibragimova onlayn imtihon topshirib, Xitoydagi Nyanchan universitetining tibbiyot fakultetiga tengdoshlaridan avval o'qishga kirish baxtiga muvaffaq bo'ldi.

— Adabiyot — ajoyibot olami, — deydi 7-sinf o'quvchisi, yosh qalamkash Qumar Siyopatdinova. — Men, ayniqsa, she'riyatga oshiqman. Yaxshi she'r o'qisam, kattakon boylikni qo'lga kiritgandek bo'laman, ilhomlanaman. Chunki she'rda insonning orzu-armoni, quvonch-qayg'usi, istak-xohishi, eng pok tuyg'usi, sevgisi, nafrati — hamma-hammasi satrlararo jo bo'lgan. Unda dag'allik yo'q, unda samimiyat, o'zgacha ifor, beg'uborlik ufurib turadi. Shu bois ham she'riyatga oshno ko'ngildan yomonlik chiqmaydi, satrlararo chinakam tuyg'ular tarbiya topadi.

Maktab-internatda nafaqat qoraqalpog' tili va adabiyoti, chet tillar ham puxta o'rgatiladi. Yosh tarjimonlar qoraqalpog'cha asarlarni chet tillarga yoki chet el adabiyoti durdonalarini qoraqalpog' tiliga tarjima qilib, to'garaklarda tengdoshlari va ustozlari bilan o'zaro fikr almashib, xato-kamchiliklarini to'g'rilab, o'z bilim va tajribasini boyitib kelmokda.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Suvdan sariyog'

Nyu-York shtatidagi Kornell universiteti olimlari tarkibining asosiy qismi suvdan iborat bo'lgan kam kaloriyalı sariyog' muqobilini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Xabar ta'lim muassasasi saytida e'lon qilindi, deb yozdi "TASS".

Jarayonda kimyogarlarining ko'p miqdordagi suvga o'simlik moyi va sut yog'ini qo'shishi natijasida sariyog' muqobili hosil bo'ldi. Tarkibida sun'iy qo'shimchalar bo'lmagan ushbu mahsulotning kaloriyasi oddiy sariyog'nikidan 75 foiz kam. Ya'ni odatdagi sariyog' tarkibida yog' miqdori 11 gramm bo'lsa, muqobilinikida 2,8 g.ni tashkil etadi.

— Biz tarkibi va ta'mi sariyog'nikiga o'xshash mahsulot yaratdik, — dedi yetakchi tadqiqotchi Alireza Abbaspurad. — Ammo mahsulotning ozuqaviy xususiyatlarini yana o'zgartirish imkoniyati mavjud. Biz unga sut yoki o'simlik oqsillari qo'shishimiz, vitamin va aromatizatorlar bilan to'yintirishimiz mumkin.



Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, olimlar jarayonda foydalangan texnologiyalar kelgusida salomatlik uchun foydali bo'lgan mahsulotlarning yangi turlarini yaratishda ham qo'l kelishi mumkin.



Smartfon miyani charchatadi(mi)?

AQShning Ratger universiteti olimlari turli vazifalarni bajarishda mobil telefondan foydalanish miyaning "qayta yuklanishi"ga yordam bermasligi, aksincha, undagi intellektual manbalarning yanada yo'qolib borishiga sabab bo'lishini aniqladi, deb yozdi "Eurekalert".

Olimlar 414 nafar talabada tajriba o'tkazgach, shunday xulosaga keldi. Jarayonda ko'ngillilar tanaffusdan avval va keyin maxsus testlardan o'tdi.

Turli guruh a'zolariga bir xil vazifa berildi va uni bajarishda har kim turli vositadan — smartfon, kompyuter yoki qog'ozdan foydalandi. Yakunda smartfondan foydalangan ishtirokchilar testlarni bajarishda qolganlarga nisbatan 19 foiz ko'proq vaqt sarflagani ma'lum bo'ldi. Natijalar ko'rsatkichi ham boshqalarnikidan yomonroq chiqdi — ular vazifalarni boshqa guruh a'zolariga nisbatan 22 foiz kamroq bajargan edi.

Mutaxassislar bu holat smartfonni kuzatishdek oddiy harakat ham insonni xabarlarini tekshirish va yangi ma'lumotlarni qabul qilish haqida doimiy o'ylashga majbur qilishi bilan bog'liq ekanini ta'kidlamoqda. Bu esa telefonga chalg'ish boshqa muammolarga diqqat qaratishga xalal berishini ko'rsatadi.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Xudaykulov Atabek Tillayevichning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha "Sut bezi saratonining O'zbekistondagi epidemiologik xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy.
Tel/faks: (71) 227-13-27; e-mail: info@ronc.uz

Kim Tatyana Valeriyevnaning 03.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasini innovatsion rivojlantirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-sentabr kuni soat 11:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Tel/faks: (66) 233-19-84; e-mail: sies_info@edu.uz

Qodirov Valijon Abdurahmonovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktablari-da o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.09.2018.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

Qambarov Musoxon Muxtorjonovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida)" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.09.2018.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

Lim Maksim Vyacheslavovichning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Erta yoshdagi bolalarda bronxoobstruktiv sindromini davolash taktikasi va diagnostikasini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Mavlyanova Nigora Narimanovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Homila yo'qotish sindromini molekulyar-genetik prognozlash va diagnostika usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 13:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Ravshanova Nilufar Adilovnaning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Zarafshon vodiysi sharoitida loviya va mosh yetishtirishni amaliy asoslash" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 9:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y.
O'zPITI ko'chasi. PSUYAITI.

Tel/faks: (95) 142-22-35, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Jumayev Shuxrat Maxsodovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Samarqand viloyati sharoitida g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga mahalliy kaliy o'g'itining samaradoligini o'rganish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-sentabr kuni soat 11:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y.
O'zPITI ko'chasi. PSUYAITI.

Tel/faks: (95) 142-22-36, (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Allayarov Abduraxman Nazaraliyevichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Karamdosh sabzavot ekinlarining zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-sentabr kuni soat 13:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

Rustamov Atxam Axmatovichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Parazit entomofag Lysiphlebus fabarum (Aphidiidae) bioekologiyasi, ozuqa zanjiri, ko'paytirish va qo'llash texnologiyasi" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-sentabr kuni soat 15:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

Lipartiya Meri Giviyenaning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda Noxodjkin limfomalari bilan og'rikan bolalarning kasallanishi va tashxislashning zamonaviy yondashuvlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-sentabr kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy.
Tel/faks: (71) 227-13-27; e-mail: info@ronc.uz

Qadriyat

Suyunchi

Tongda derazani ochishim bilan bahor yomg'irida yuvilib yanada musaffolashgan havo xonaga oqib kira boshlaydi. Bundan ruhiyatimda yengillik sezib musaffo osmonga hayajon bilan termular ekanman, xayolimni telefon ovozi bo'ladi. Yashil tugmani bosishim bilan sinfdosh jo'ram — Akram jarangdor ovozda: "Suyunchi ber!" deydi. Butun vujudim jimirib ketadi.

Bolalik do'stim kabi qadrdon bu kalom olis xotiralar girdobiga tortadi. Toshloq yo'lda o'ziga sig'may yugurib borayotgan bolaligim tili bilan bu so'zni takrorlayman: "Suyunchi!"

O'shanda sakkiz yoki to'qqiz yoshda edim. Ukam ikkimiz qishloq bolalari bilan ko'chada chillak o'ynayotgandik. Onam bizni chaqirarkan, qo'li bilan uzoqqa ketamiz, deganday ishora qiladi. Biz o'yinni ham unutib, chillak tayochchalarini ulotirgancha onamning yongacha chopib keldik. Volidam beqasam choponimiz ustidan belbog' bog'larkan:

— Balandga borib bobonglardan suyunchi olinglar. Akam o'g'illi bo'libdi, denglar, deydi onam otamning biz bilan qo'shni turadigan ukasini nazarda tutib.

— Yangam chaqaloq olib keldimi? Qani, biz ham ko'raylik, — deymiz quvonchdan o'zimizga sig'may.

— Yangam do'xtirda. Kelsa, ko'rasizlar chaqaloqni, — deb onam gapini tugatmasdan biz balandga — otamning amakisi bo'lgan bobomning uyiga qarab yugurib ketamiz. Bobomning uyi bizdan bir chaqirim narida qishloq adog'idagi tepalikda joylashgan. U yerga avval asfalt, keyin toshloq yo'ldan boramiz. Tanish ko'chalardan o'tib ketarkanmiz, atrofdagi hech bir narsaga e'tibor qilmay, oldimizdan chiqqan odamlarga ham shoshib salom bergancha yugurib boramiz. Chopon o'ngiri oyoqqa o'rilib bizni orqaga tortayotganday bo'ladi. Shunda bir muddat to'xtab to'nimizni yechib belbog'imizga tugib olamiz. Keyin peshonadan duvillab oqayotgan termi artganicha, ko'zimizda suyunchi olish ishtiyoqi kuchayib yanada jadalroq yugura boshlaymiz. Ammo ko'p o'tmay yo'limizni qishloqdoshimiz Hayit bobo to'sadi. U bizni olisdan ko'rganidayoq qo'llarini keng yoyib ko'chaning ikki yuziga borib kela boshlaydi. Biz qanchalik uddaburlik qilishga urinmaylik doim biz bolalar bilan tengdoshiday hazil qiladigan

Hayit bobo epcchillik ila tutib oladi.

— Shoshib qayoqqa ketyapsizlar? — deydi u. Qafasdagi qushdek tipirchilab o'zimizni har yonga urgancha borar manzilimizni aytamiz. Ammo Hayit bobo bizni qo'yib yuborishga shoshmaydi. Balki ataylab ko'proq vaqt tutib turishga urinadi.

— Meni ham olib bormasangizlar, qo'yib yubormayman, — deydi. Tag'in nafas rostlab ulgurmasimizdan: — Sizlarda bir gap bor. Nimaga shoshilib ketyapsizlar? Yoki uydan qochib ketyapsizlarmi? — deydi. Agar maqsadimizni aytasak, Hayit bobo bizdan oldin borib suyunchi oladiganday, xushxabarni bildirgimiz kelmay kalovlanib qolamiz. Ammo navbatdagi so'rovdan so'ng ukam "sirimiz"ni sotib qo'yadi. Jilmayganida yuzidagi ajinlar qulog'igacha cho'zilib boradigan Hayit bobo tomlari bo'rtib turgan chayir qo'llaridan bizni ozod qiladi. Biz esa negadir yo'lda davom etishni xayolga ham keltirmay u kishiga umidvor termulamiz. Hayit bobo esa:

— Jabbor akangiz ulli bo'ldimi? — deydi. Biz baravariga tasdiqlab bosh chayqaymiz. U kishi gapida davom etish barobarida cho'ntak kovlab: — Shuni ertaroq aytmaysizlarmi? O'zim ham bular bir xushxabar olib ketyapti, deb o'yladim... Mana bu suyunchi, — deb ikkimizga ham pul uzatadi va. — Bobongizga aytin, suyunchiga qo'zi bersin!

Nihoyat tomida lolaqizg'aldoq unib, tepalikning bir qismiday bo'lib turgan uy ko'rinadi. Biz o'rtadagi dahlizdan kirganda xurjun ko'ziday ikki yonda joylashgan xonalardan biri — bobomlar doimiy o'tiradigan hujra eshigini ochib ichkariga mo'ralaymiz. Derazaga ro'para bo'lib choy ho'playotgan bobom, u kishidan sal berida urchuq aylantirayotgan momom o'tiradi. Ular bizni ko'rishlari bilan yonlariga chorlaydi. Biz salom berishni ham unutib suyunchi so'raymiz. "Suyunchi degan tillaringdan", deb momo

Nihoyat tomida lolaqizg'aldoq unib, tepalikning bir qismiday bo'lib turgan uy ko'rinadi. Biz o'rtadagi dahlizdan kirganda xurjun ko'ziday ikki yonda joylashgan xonalardan biri — bobomlar doimiy o'tiradigan hujra eshigini ochib ichkariga mo'ralaymiz. Derazaga ro'para bo'lib choy ho'playotgan bobom, u kishidan sal berida urchuq aylantirayotgan momom o'tiradi. Ular bizni ko'rishlari bilan yonlariga chorlaydi. Biz salom berishni ham unutib suyunchi so'raymiz. "Suyunchi degan tillaringdan", deb momom yuzimizdan o'pib ko'rishadi. So'ng to'rdagi sandiq qarshisida cho'kkaalaydi. Bobom esa bizni tizzasiga o'tirg'izib erkalagan bo'ladi.



mom yuzimizdan o'pib ko'rishadi. So'ng to'rdagi sandiq qarshisida cho'kkaalaydi. Bobom esa bizni tizzasiga o'tirg'izib erkalagan bo'ladi va momonga qarata:

— Kechagi choponni chiqar, — deydi akamning o'g'illi bo'lganini bilib. Ukam bilan bir-birimizga qarab olamiz. Ammo shu onning o'zidayoq sandiq eshigi ochilib turfa xildagi yangi matolarning kishini entiktiradigan hidi dimoqqa uriladi. Momom yangi choponni olib bizga tutmaguncha sandiqdan ko'zimizni uzmaymiz. Choponni yoyib ko'rgan momom:

— Katta-ku, — deydi. Bunga javoban bobom:

— Bular ham sal vaqtda yigit bo'lib qoladi, — deydi. Tag'in momom yangi belbog' olib uni tugib berguncha sabrimiz chidamay eshik yoniga borib kela boshlaymiz. Ular bizni ilhaq qilmasdan tugunni tutqazib:

— Borib u yoqdagilardan ham suyunchi olinglar, — deydi ketma-ket joylashgan o'g'illarining uyiga ishora qilib. Biz endi hovlima-hovli o'tib amakilarimizga ham xushxabarni ulashib chiqamiz. Boshqa vaqtlarda kelgan-ketganimizga ko'p ham e'tibor beravermaydigan qarindoshimiz bizni uzoqdan kelgan aziz mehmonlar kabi siylaydi. Tag'in akamning quvonchini o'zlarining baxtiday bilib, tug'ilgan chaqaloq ham ularga o'g'il bo'ladiganday sevinib sovg'a-salomlar beradi. Qo'ng'imizni to'ldirib uyga qaytar ekanmiz, sabrimiz chidamay yo'ldagi tutqator orasidagi ajriq ustida tugunlarni o'rtaga qo'yamiz. Boyagi belbog'ni yechib undan yangi choponni olib kiyib ko'raman. Uning o'ngiri yer supurib yelkasi bilagimga tushib turadi. Bu choponning hozir nafi tegmasligini bilib qaytarib o'rarkanman:

— Katta bo'lganimda kiyaman, — deyman. Ukam esa:

— Nimaga hamma narsani sen kiyasan ekan? Men-chi?! — deydi.

— Chunki sendan oldin tug'ilganman. Men birinchi katta bo'laman. Shuning uchun chopon meniki, — deyman bilag'onlik qilib. Ukam esa qomatini g'oz tutib:

— Mening bo'yim uzun. Baribir men birinchi katta bo'laman, — deydi.

Bo'ychan ukamning haqli talabiga jo'yal javob qaytarolmay:

— Bo'пти, kelishib olamiz, — deyman murosasini tanlab. So'ng ukam ko'tarib kelayotgan tugunni ochamiz. Undan tandirdan endi uzilgan bir juft nonning hidi dimoqqa uriladi. Hammasidan ham bizni non ustidagi bir hovuch parvarda quvontirib yuboradi. Biz undan birontasini olib yeydigan bo'lsak onam xafa bo'ladiganday parvardaga qo'l cho'zishdan o'zimizni tiyamiz. Ammo baribir undan tatib ko'rish yo'lini izlay boshlaymiz. Shunda issiqdan erib non yuziga yopishib qolgan parvardaning "aynib" ketishidan qo'rqib, uni teng bo'lib cho'ntagimizga uramiz. So'ng "jinoiyat" izini yo'qotish uchun non yuzidagi parvarda dog'larini avval qo'l, so'ng tilimiz bilan sidirib yalaymiz...

Hamon mening javobimni kutayotgan sinfdoshim:

— Allo, suyunchi berasanmi? — deydi.

— Suyunchining kattasi bizdan! Qanday yangilik bor? — deyman o'zimga kelib.

— Mahmud oshna ulli bo'ldi. Ismini Temurbek qo'yibdi, — deydi Akram.

O'n bir yil bir ko'chadan maktabga qatnagan, partadosh do'stimning to'yidan so'ng to'rt yil o'tib, to'ng'ich farzandi tug'ilganini eshitib benihoyat sevinib ketaman. Ayni vaqtda bir xonadonga baxt keltirgan chaqaloq nafaqat ularning, balki barcha do'stlarimiz, qolaversa, butun qishloqdoshlarning quvonchiga sababdek ko'rinadi...

...Hozir qishlog'imdan ming chaqirim berida turib xayolan o'sha toshloq ko'cha bo'ylab hayajondan nafasim bo'g'zimga tiqilib, yugura boshlayman. Mana, yana Hayit bobo yo'limizni to'sadi. Undan keyin esa momom ochgan sandiqda turli matolarning hidi dimoqqa uriladi. Tag'in non yuzidagi parvarda shirasini yalayotgandek tamshanaman. So'ng o'sha bir juft nonning tafti hamon yuzimga urib turganini his etaman. Keyin... keyin esa bolalik do'stim kabi qadrdon kalomni beixtiyor takrorlayman: "Suyunchi!"

Boboravshan G'OZIDDINOV

Ziyodaning yana bir g'alabasi

Mustaqillik ayyomiga munosib tuhfa bo'ldi

Sentabr oyining ilk kunlari Janubiy Koreyaning Chonju shahrida Butunjahon jang san'atlari festivali bo'lib o'tdi. Qariyb bir hafta davom etgan sport anjumanida dunyoning 50 ga yaqin davlati qatori yurtimiz o'zbek jang san'ati terma jamoasi vakillari ham munosib ishtirok etdi. Musobaqada 49 nafar sportchimizning bari sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, yurtimizga medallar shodasi bilan qaytdi.

Jamoa safida eng kuchli sportchilari-miz oltin medallarni qo'lga kiritib, mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tardi. Ular orasida 16-17 yoshlilar o'rtasidagi bahslarda +61 kg vazn toifasida maydonga tushgan Xonqa tumanidagi 46-maktabning 11-sinf o'quvchisi Ziyoda Otajonovanning ham borligi Xorazm ahli uchun chinakam shodiyona bo'ldi.

— Bu xabarni eshitib, juda quvondik, — dedi Ziyoda tahsil oladigan 46-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Rustam Yusupov. — O'quvchimizning yirik xalqaro musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritishi nafaqat maktabimiz, balki viloyatimiz uchun quvunchli voqeadir. Zero, Ziyoda kabi harakatchan, maqsadi sari olg'a intiluvchi, o'z yutuq va g'alabalari bilan O'zbekiston nomini dunyoga tanitayotgan yoshlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Ziyodaning o'zbek jang san'ati sporti

bilan shug'ullanayotganiga ko'p bo'lmaidi. Uning bu sport turiga qiziqishi 3 yil oldin paydo bo'lgan. Ota-onasi ham qizining o'g'il bolalarga mos sport turi bilan shug'ullanishiga monelik qilmadi. Aksincha, uning qo'llaridan tutib, murabbiy Shokir Jumamurodov yoniga olib bordi.

— Murabbiy bo'lganim bois ko'pincha turli maktablarda bo'lib, sportga qobiliyati bor, kuchli bolalarni o'z mashg'ulotlarimga jalb etaman, — dedi Xonqa tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi murabbiyi Shokir Jumamurodov. — Ziyodani ilk bor ko'rganimdayoq unda o'zbek jang san'atida talab etiladigan kuch va qobiliyat borligini payqadim. Shunda hech ikkilanmay, qizning ota-onasi bilan gaplashdim. Ular ham Ziyodaning sport bilan shug'ullanishiga qarshilik qilmadi. Ilk mashg'ulotlardayoq undan kuchli sportchi chiqishiga amin bo'ldim. U tabiatan irodali, qat'iyatli qiz bo'lgani bois mashaqqat-



lardan sira qochmadi. Faqat olg'a intilishi tufayli yuqori marralarni zabt etib kelmoqda.

Ziyoda oilada yagona sportchi. Shunga qaramay, ota-onasi, yaqinlari hamisha uni qo'llab-quvvatlaydi, yonida turadi. Oilasining ishonchi yanada kuch bag'ishlagani uchunmi, doim musobaqalarda yuqori o'rinlarni oladi. O'z g'alabalari bilan yaqinlari, ustozlarini quvontiradi.

Qahramonimiz sportdan tashqari o'qishda ham tengdoshlariga namuna. Barcha fanlarni qunt bilan o'rganib, faqat a'lo baholar olishga intiladi. Ustozlari uning ayniqsa til o'rganishga qiziqishi va qobiliyatini alohida e'tirof etadi. Jismoniy tarbiya darslarida-ku unga teng keladigan topilmaydi.

Ziyoda darslardan keyin asosiy vaqtini, shubhasiz, o'zbek jang san'ati mashg'ulotlarida o'tkazadi. Hozir murabbiylari — Shokir Jumamurodov hamda Nodirbek Turdiyevdan sport sirlarini o'rganmoqda. Ustozlarining aytishicha, u guruhdagi eng kuchli sportchi qizlardan.

Bugun Ziyoda professional sportchi bo'lish bilan birga o'zbek jang san'ati bo'yicha terma jamoa a'zosi hamdir. Eng

qobiliyatli, sportda ma'lum yutuqlarga erishgan o'g'il-qizlarga terma jamoa safida Vatanimiz sharafini himoya qilish baxtiga muyassar bo'ladi. Ziyoda ham o'z qobiliyati, tinimsiz mehnatlari bilan kuchli sportchilar safidan joy oldi. O'tgan 3 yil davomida u ko'plab sport musobaqalari, xalqaro turnirlarda ishtirok etib, qator sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. O'zbek jang san'ati bo'yicha o'tkazilgan 2018-yilgi O'zbekiston chempionati hamda 2019-yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan 1-Osiyo chempionatida 1-o'rinni egallab, har ikkala turnirning mutlaq g'olibiga aylandi. Janubiy Koreyaning Chondju shahrida o'tgan Butunjahon jang san'atlari festivalidagi g'alabasi esa qahramonimizning hayotidagi eng totli zafarlaridan biri bo'ldi.

— G'olib bo'lganimni eshitganim hamon, birinchi bo'lib ota-onamga qo'ng'iroq qildim, — dedi Ziyoda Otajonova o'z hayajonini yashirolmay. — G'alabamdan ular ham mendek juda quvonishdi. Ochig'i, musobaqa avvalida raqiblarimning anchayin kuchli ekanini ko'rib, biroz cho'chigandim. Ammo keyin Vatanimiz sharafini himoya qilish mas'uliyatini chuqur anglagan holda, bor kuchim bilan jang qildim. Raqibimning harakatlari, imkoniyatlarini o'rganib, unga qarshi aniq zarbalar berdim va g'alaba qozondim. G'oliblik shohsupasida turganimda esa o'zimda quvunch bilan birga, faxr tuyg'usini tuydim. Zero, Vatan bayrog'ini baland ko'tarish har bir sportchining orzusidir.

Yirik xalqaro musobaqa Ziyoda uchun yana bir tajriba maktabi bo'ldi. U bu g'alabasi bilan cheklanib qolmaydi. Ustozlarining saboqlari yordamida yana va yana oldinga intiladi. Ziyoda, o'zi orzu qilganidek, jahon chempioni bo'lib, o'zbek jang san'ati dovrug'ini dunyoga yoyishiga ishonamiz.

Iroda TOSHMATOVA,
"Marifat" muxbiri



**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDA TASHKIL ETILGAN KASBIY
QAYTA TAYYORLASH KURSIGA PEDAGOGIK VA
NOPEDAGOGIK OLIY MA'LUMOTGA EGA
BO'LGAN TALABGORLARNI BARCHA FAN
YO'NALISHLARIDA O'QISHGA TAKLIF QILAMIZ.**

Kursda o'qish istagini bildirgan talabgorlar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Diplom va ilovasi (asl nusxasi).
- Pasport nusxasi.
- Mehnat daftarchasidan nusxa.
- Ish joyidan ma'lumotnoma.
- 3x4 o'lchamli 6 dona fotosurat.
- Talabnoma (ish joyidan).

Ma'lumot uchun quyidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qiling: (90) 931-60-73, (97) 700-28-73.



Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mirzo Ulug'bek akademik litseyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-apreldagi 303-F-sonli farmoyishi hamda Toshkent shahar hokimining 2018-yil 21-apreldagi "Toshkent shahrida faoliyati tugatilishi rejalashtirilayotgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining bino va inshootlaridan samarali foydalanish haqida"gi 656-sonli qaroriga asosan 2019-yil 1-sentabrdan o'z faoliyatini tugatganligini ma'lum qiladi.

**Qo'shimcha ma'lumot uchun manzil: Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z 2-mavzesi, 7-"A" uy.
Telefon raqami: (94) 630-56-69.**

"Marifat"—"Учитель Узбекистана" gazetalari jamoasi tahririyat xodimi Isomiddin Suyunovga akasi

Sharif SUYUNOVning
vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Qo'qonda hunarmandlik festivali

Qo'qon shahrida o'tkaziladigan Xalqaro hunarmandchilik festivaliga viloyatda katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Mazkur tadbir orqali milliy hunarmandchiligimizni keng targ'ib qilish, hunarmandchilik an'ana va maktablarini saqlash, qayta tiklash, bu sohadagi ilmiy o'rganish va izlanishlarni xalqaro hamkorlikda amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish va mahorat darslari tashkil etish, sohadagi iqtidorli hunarmandlarni rag'batlantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.



Xalqaro hay'at tomonidan ko'rik-tanlov ishtirokchilarining mahsulotlari ko'rgazmasi va mahorat darslari besh nominatsiya ("Eng yaxshi hunarmand", "Eng yosh hunarmand", "Eng yaxshi hunarmandchilik maktabi ustasi", "Qadimiy sulola davomchisi" va "Qadimiy hunarmandchilik turini tiklagan hunarmand") bo'yicha baholanadi.

Festival dasturi olti kunga mo'ljallangan bo'lib, unda xorijlik va mahalliy hunarmandlar mahsulotlari ko'rgazma-savdosi, ko'rik-tanlovi, shuningdek, mahorat darslari, ilmiy-amaliy konferensiya hamda folklor-etnografik guruhlarning chiqishlari, xalq o'yinlari, teatr tomoshalari, milliy kurash, chavandozlik, qo'g'irchoq teatrlari hamda mahalliy dizaynerlarning moda namoyishlari, osh tayyorlash, o'zbek an'anaviy musiqa va raqs dasturlari o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Asosiy tadbirlar Xudoyorxon o'rdasi va unga tutash Qo'qon shahridagi markaziy istirohat bog'i hududida bo'lib o'tadi. O'rda maydonida, shuningdek, Rishton, G'ijduvon, Urgut, Toshkent, Kattabog', Madir, Samarqand, G'urumsaroy, Oltinko'l, Shahrisabz kulollik maktablari namoyandalari tomonidan mahorat darslari va treninglar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Festival dasturidan Jome majmuasida O'zbekiston xalq ustasi, yog'och o'ymakori Muhammadali Yunusov ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma, Dasturxonchi madrasasida "Rishton moviy ko'zgusi" nomli Rishton kulollik san'atiga bag'ishlangan


ko'rgazma hamda "O'zbek kulollik maktablari" nomli kitob taqdimoti, Qo'qon musiqali drama teatrida spektakllar namoyishi kabi 50 dan ortiq qiziqarli madaniy tadbirlar o'rin olgan.

Festivalda 72 davlatdan 205 nafar hunarmand va mamlakatimizning barcha viloyatlaridan 1100 dan ortiq ustalar ishtirok etadi. Unda Jahon hunarmandlari kongressining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'yicha prezidenti Dr. Gada Hijiavi-Qaddumi, "International folk-art market (IFAM)" tashkiloti rahbari Jeyn Reyd, UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Fuad Pashayev kabi yuqori martabali mehmonlar qatnashadi.

Festival tadbirlari doirasida Qo'qon musiqali drama teatri binosida "Hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya ham o'tkazilishi rejalashtirilgan. Unda 23 davlatdan 32 nafar olim va 6 nafar o'zbek olimi ishtirok etishi kutilmoqda.

Festival ishtirokchilarini ro'yxatga olish va tadbirga doir barcha ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida www.handicrafters.uz veb-sayti ishga tushirilgan bo'lib, o'zbek, rus va ingliz tilida faoliyat ko'rsatmoqda.

MUXBIRIMIZ



O'za suratlari.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-929. Tiraj 11626.
Hajmi 4 bosma taboq. Offset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchesi muharrir: Nazokat Xolmetova.
Navbatchesi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — 00.30 Topshirildi — 00.50

1 3 4 5 6